to'g'ri kelishi1; voha aholisining 85.1 foizini o'zbeklar, 9.3 foizini tojiklar, 1.4 foizini arablar, 0.5 foizini yahudiylar tashkil qilishi1 qishloqlarda yashovchi aholining 83.5 foizini o'zbeklar, 10.7 foizini tojiklar, 1.6 foizini turkmanlar, 0.4 foizini qozoqlar va 3.8 foizi arablardan iborat ekanligi qayd etilgan.

Manbalarda amirlikdagi mavjud shaharlar haqida turli- tuman ma'lumotlar uchraydi. Ulardan shahar aholisining soniga qarab, katta yoki kichik toifalarga ajratilgan. Qashqadaryo vohasidagi aholining soni 50.000 ortiq bo'lgan shaharlari guruhiga Qarshi va Shahrisabz kiritilgan bo'lsa, aholisi 5000 dan 15 minggacha bo'lgan shaharlar sifatida Kitob, Chiroqchi, G'uzor, Yakkabog', G'uzor, Yakkabog' shaharlari ko'rsatib o'tilgan.

Aholini ro'yhatga olish ma'lumotlarida voha shaharlari aholisining soni va milliy tarkibi quyidagicha aks etgan: jami ro'yhatdan o'tgan aholining 39.038 nafari shaharlarda, shulardan 30.360 nafari o'zbek; 4.102 nafari rus; 823 nafari arab; O'rta Osiyo yahudiylarining barchasi; 692 nafari Isroil yahudiylari; 587 nafari tatar; 466 nafari ukrain; uyg'urlarning barchasi; 185 nafari tojik; 11 nafari turkman; 86 nafari arman; 70 nafari lo'li; 54 nafari fors; nemislarning barchasi; 32 nafari polyak; gruzinlarning barchasi; 23 nafari Moldavan; 17 nafari latish; 16 nafardan belorus, afg'on; 15 nafar lezgin; 14 nafari boshqird, 8 nafari qirg'iz, 5 nafari Chuvash, qalmiqlarning barchasi, 3 nafari litvalik, 2 nafardan bolgar, votyak, usmonli turk, hind, 245nafari millati aniq ko'rsatilmagan aholi; 1 nafardan boshqa millat vakillari: xitoy, rumin, eston, rumin, eston, fin, osetin va turk millatiga mansub aholi istiqomat qilgan¹.

Polkovnik Galkinning bu boradagi tadqiqotlari Shahrisabz vodiysi va Qarshi tekisliklarida 500.000 ga yaqin aholi yashaganligidan dalolat beradi².

Qiyosiy tahlillarga ko'ra, so'nngi o'rta asrlarga oid manbalardagi voha aholisi haqida keltirilgan ma'lumotlarda birmuncha tafovutlarni kuzatish mumkin. Misol uchun, voha shaharlari aholisining sonini o'rgangan Semyonov-Tyanshanskiy Qarshida taxminan 60.000-70.000, G'uzorda esa 20.000 ga yaqin, Shahrisabz shahrida

¹ O'zR MDA. R-1619-jamgarma, 11-ro'yhat, 53-jild. 25-varaq; Vsesoyuznaya perepis naseliniya 1926 goda.-S.25

² Polk. Galkin. Kratkij voenno-statisticheskiy ocherk v Buxarskom xanstve.... -S. 13.

30.000 ga yaqin, Kitob shahrida 3000 yaqin kishi, Chiroqchi shahrida 5000 kishi istiqomat qilishini keltirib o'tgan. Manbalar ma'lumotlari vohada aholi sonining aslida yuqoridagiga nisbatan ko'pligidan dalolat beradi. Xususan, polkovnik Belyavskiy keltirilgan ma'lumotlarda Shahrisabz bekligi aholisining soni 140.000 ga yetishi, agar bunga Qashqadaryoning yuqori oqimi, Oqsuv, Tanhoz va Qizilsuv daryolari bo'ylarida joylashgan qishloqlar aholisini ham qo'shib hisoblasa, ularning soni tahminan 280.000 kishini tashkil etishi aytiladi. Ushbu ma'lumotni kapitan Arxipov va kapitan Pokotilolar¹ ham tasdiqlaydi¹.

Shahrisabz bekligi aholisining ko'pchilik qismini o'zbeklarning kenagas va saroy urug'lari tashkil qilgan¹. Shuningdek, beklilikda qirg'izlar va yahudiylar ham istiqomat qilishgan. Beklik aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan (qo'ychilik bilan asosan tog' adirlari va yaylovlarda yashovchi aholi) shug'ullangan.

G'uzor bekligi aholisi 40.000 ga yaqin hovli va o'tovlarda istiqomat qilib, bir qismi ko'chmanchi qirg'iz-qo'ng'irotlar, bir qismi esa o'troq o'zbek -qovchin, sart, xo'ja va tojiklardan iborat bo'lgan¹. Arxiv hujjatlarida G'uzor shahrining o'zida 20.000 ga yaqin aholi istiqomat qilishi qayd etilgan¹. G'uzorda razvedka ishlarini olib brogan polkovnik Fedorov kapitan Arxipovning ma'lumotlarini tasdiqlagani holda, beklilikda katta yoshdagi aholi soni 25.000 kishi, kichik yoshdagilar bilan birgalikda jami aholi soni 50.000 kishidan ortiq bo'lganligini qayd etadi. Shundan 20.000 atrofida, ya'ni aholining 80 foizga yaqini o'zbeklar, 5.000 atrofida, yoxud 20 foizga yaqin qismini tojiklar tashkil qilgan. Shu bilan birga, G'uzor shahrida bir necha yahudiy oilalari, 50 nafarga yaqini hindlar, 5 nafar afg'on va 50 nafar lo'li istiqomat qilgan. Beklikning umumiy maydoni 4.500 kv. verst yoki 90 kv. milni tashkil etib, 1 kv. milga o'rtacha 280 kishi to'g'ri kelgan. Beklik aholisining 22.000 nafarga yaqini Katta O'ra daryo, 2.000 nafarga yaqin esa G'uzordaryo bo'ylarida, ya'ni beklilikning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Beklikning ba'zi hududlarida aholi nisbatan zich

¹ Kap. Arxipov. Voennaya rekognosirovka ravninnoy chasti Buxarskovo xanstva, proizvedennaya v 1883 g. // Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii.-SPb: Voennaya tipografiya

joylashgan, xususan, G‘armiston amlokligining umumiy maydoni 3,5 kv. milni tashkil qilib, har kvadrat milga o‘rtacha 550 nafarga yaqin aholi to‘g‘ri kelgan.

Buxoro amirligining yer maydoni va aholisi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar turlicha bo‘lib, ular XVIII-XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasining etnik tarkibi turli urug‘ va qabila vakillaridan tarkib topganligini ko‘rsatadi. Bu davrda Qarshi shahri va uning atroflarida mang‘it, saroy, qovchin, qatag‘on, qutchi, qipchoq, xitoy, qirq, va boshqa urug‘lar, Shahrisabz va uning atrofida kenagas, saroy, qutchi, turk, qatag‘on, qalmoq, qang‘li, chuyut, qiyot, qo‘ng‘irot, mo‘ror, mang‘it, mitan, mo‘g‘ul, nayman, sayot urug‘lari, G‘uzor va uning atroflarida qovchin, keroyit, qo‘ng‘irot, mang‘it va boshqa urug‘lar yashagan. Shahrisabz bekligida XIX asr o‘rtalarida tatarlardan 45 nafar kishi, chig‘atoylardan 75 nafar kishimisti qomat qilgan. Chig‘atoylarning kelib chiqishi chig‘atoy mo‘g‘ullariga borib taqalib, qang‘lilar esa Qashqadaryoning yuqori oqimi bo‘ylab joylashgan.

Qashqadaryo vohasida yashovchi o‘zbek qabilalariga aymoqlar va saidlar ham kiradi. Aymoqlar jami 3.625 kishidan iborat bo‘lib, shundan 3.170 nafari Qarshi vohasida, 455 nafari Yakkabog‘daryoning yuqori oqimida istiqomat qilgan. Saidlarning 95 nafari esa Qashqadaryoning yuqori oqimi bo‘ylab joylashgan.

Tojiklar Shahrisabzga nisbatan Kitob shahrida ko‘pchilikni tashkil qilgan. Chig‘atoy tojiklaridan Qashqadaryo vohasida: Qashqadaryoning yuqori oqimi bo‘ylab 6.125 kishi; Shahrisabz vohasida 250 kishi; Qarshi vohasida 7.280 kishi istiqomat qilgan. Amirlikda Chig‘atoy tojiklari va o‘zlarini tojik deb hisoblovchi, tojik tilida so‘zlashuvchi, ammo o‘zbek qabilalari nomlari bilan ataluvchi etnoslar ham mavjud bo‘lgan.

Qashqadaryo aholisining etnik tarkibi va urbanizatsiya jarayonlarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-voha shaharlarida o‘zbek va boshqa elatlarga mansub aholi istiqomat qilib, ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan, aholining ko‘pchiligini (85 foizini) o‘zbeklar tashkil etgan;

-voha aholisining asosiy qismi qishloq aholisidan iborat, bo‘lib, ular tog‘, tog‘ oldi va dashtlarda istiqomat qilishgan. XX asr boshlarida Qashqadaryo aholisining faqat 13.6 foizigina shaharlarda hayot kechirgan

-qishloq tumanlarda yashovchi aholi urug va qabilalar bo‘yicha joylashgan, aholining shahar guzarlarida joylashuvi, etnik tarkibi hamda ijtimoiy mavqei ularning hunarmandchilik va savdo faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kap. Arxipov. *Voennaya rekognosirovka ravninnoy chasti Buxarskovo xanstva, proizvedennaya v 1883 g. // Sbornik geograficheskix, topograficheskix I statisticheskix materialov po Azii.-SPb: Voennaya tipografiya*
2. Polk. Galkin. *Kratkiy voenno-statisticheskij ocherk v Buxarskom xanstve.... -S. 13*
3. O‘zR MDA. *R-1619-jamgarma, 11-ro‘yhat, 53-jild. 25-varaq; Vsesoyuznaya perepis naseliniya 1926 goda.-S.25*

**СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ СТОМАТОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ:
РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ И УЛУЧШЕНИЕ
ГИГИЕНЫ ПОЛОСТИ РТА**

Халилова Барчиной Расуловна

ассистент Ферганского медицинского института
Общественного здоровья.

***Актуальность.** Стоматология в Узбекистане за последние годы добилась значительного прогресса благодаря внедрению современных технологий и методик. Однако в стране по-прежнему существует ряд проблем, с которыми сталкивается стоматологическая отрасль. Цель этой статьи - обсудить некоторые современные проблемы стоматологии в Узбекистане и потенциальные пути их решения.*

***Ключевые слова:** стоматология, современные вызовы в стоматологическом секторе, ограниченный доступ к стоматологической помощи, профилактическая стоматология, качество стоматологических услуг.*

***Relevance.** Dentistry in Uzbekistan has made significant progress in recent years thanks to the introduction of modern technologies and techniques. However, there are still a number of problems faced by the dental industry in the country. The purpose of this article is to discuss some modern problems of dentistry in Uzbekistan and potential ways to solve them.*

***Keywords:** dentistry, modern challenges in the dental sector, limited access to dental care, preventive dentistry, quality of dental services.*

Введение. Стоматология играет решающую роль в поддержании общего состояния здоровья, и за последние годы в стоматологической отрасли

Узбекистана произошли значительные изменения. Однако, как и многие страны, Узбекистан сталкивается с современными вызовами в своем стоматологическом секторе.

Ограниченный доступ к стоматологической помощи. Одной из основных проблем в области стоматологии в Узбекистане является отсутствие доступа к качественной стоматологической помощи, особенно в сельской местности. Узбекистан, с его разнообразным населением и географическим распределением, сталкивается с проблемами в обеспечении равного доступа к стоматологическим услугам. Сельские районы часто сталкиваются с нехваткой специалистов-стоматологов, что затрудняет жителям получение своевременной и качественной стоматологической помощи. Многие люди, живущие в отдаленных регионах, не имеют доступа к базовым стоматологическим услугам, что приводит к высокой распространенности стоматологических заболеваний и проблем со здоровьем полости рта. Это отсутствие доступа к медицинской помощи усугубляется нехваткой квалифицированных специалистов-стоматологов в этих областях. Чтобы решить эту проблему, правительству и соответствующим заинтересованным сторонам необходимо уделить приоритетное внимание развитию стоматологической инфраструктуры в сельской местности и стимулировать стоматологов работать в этих недостаточно обслуживаемых районах. Внедрение мобильных стоматологических клиник и телемедицинских услуг может помочь сократить разрыв между городскими и сельскими районами, обеспечив большее число людей доступ к профилактической и корректирующей стоматологической помощи.

Осведомленность о профилактической стоматологии. Общественность недостаточно осведомлена о важности гигиены полости рта и связи между гигиеной полости рта и здоровьем в целом. Многие люди в Узбекистане не уделяют приоритетного внимания регулярным стоматологическим осмотрам и профилактическому уходу, что приводит к увеличению числа предотвратимых проблем со здоровьем полости рта. Следует приложить усилия для

информирования общественности о важности гигиены полости рта и регулярных посещениях стоматолога, а также о потенциальных последствиях пренебрежения гигиеной полости рта. Существует необходимость в повышении осведомленности населения о важности профилактической стоматологической практики. Многие люди по-прежнему обращаются за стоматологической помощью только тогда, когда проблемы становятся серьезными, пренебрегая обычными осмотрами и практикой гигиены полости рта. Решение: Кампании общественного здравоохранения, образовательные программы в школах и инициативы по работе с населением могут способствовать повышению осведомленности о важности профилактических мер, таких как регулярные осмотры у стоматолога и надлежащая гигиена полости рта.

Технологические достижения. Стремительное развитие стоматологических технологий стало одновременно и вызовом, и возможностью. Чтобы идти в ногу с последними достижениями, требуется постоянное обучение специалистов-стоматологов. Решение: Создание программ непрерывного образования и интеграция современных технологий в стоматологическую практику могут повысить качество предоставляемых услуг и гарантировать, что практикующие врачи будут в курсе последних тенденций в стоматологии.

Сотрудничество между государственным и частным секторами. Сотрудничество между государственным и частным секторами в стоматологической отрасли может быть улучшено. В то время как государственные стоматологические услуги доступны, частный сектор часто предоставляет более продвинутые и специализированные методы лечения. Решение: Поощрение сотрудничества между государственным и частным стоматологическими секторами может оптимизировать распределение ресурсов, улучшить качество медицинской помощи и повысить общую эффективность системы стоматологического здравоохранения.

Доступность по цене и страхование. Еще одной проблемой, с которой сталкивается стоматология в Узбекистане, является высокая стоимость

стоматологического лечения. Многие люди не могут позволить себе оплачивать необходимые стоматологические процедуры, что приводит к отсутствию профилактической помощи и увеличению распространенности проблем со здоровьем полости рта. Правительству следует рассмотреть возможность реализации политики, направленной на то, чтобы сделать стоматологическую помощь более доступной для населения в целом. Это могло бы включать субсидирование стоматологического лечения для лиц и семей с низким доходом, а также содействие просвещению по вопросам гигиены полости рта, чтобы в первую очередь предотвратить необходимость дорогостоящего лечения. Доступность стоматологической помощи остается проблемой для многих людей в Узбекистане. Ограниченное страховое покрытие стоматологических процедур может удерживать людей от обращения за необходимым лечением. Решение: Внедрение или расширение программ стоматологического страхования и изучение способов сделать стоматологическое лечение более доступным могут побудить людей уделять приоритетное внимание своему здоровью полости рта без финансовых ограничений.

Кроме того, существует необходимость в усилении регулирования и надзора за стоматологической практикой в Узбекистане. В настоящее время существуют опасения по поводу качества и безопасности некоторых стоматологических процедур, а также этического поведения некоторых практикующих врачей. Ужесточение нормативных актов и обеспечение соблюдения стандартов медицинской помощи могут помочь улучшить общее качество стоматологических услуг в стране.

В заключение, несмотря на то, что в последние годы стоматология в Узбекистане добилась значительных успехов, все еще существует ряд проблем, которые необходимо решить. Доступ к качественной стоматологической помощи, доступность лечения по цене, регулирование практики и осведомленность общественности о здоровье полости рта - все это области, требующие внимания и улучшения. Решая эти современные проблемы,

Узбекистан может работать над обеспечением того, чтобы все его граждане имели доступ к качественной стоматологической помощи и поддерживали хорошее здоровье полости рта. Решение современных проблем стоматологии в Узбекистане требует комплексного подхода с привлечением государственных инициатив, специалистов-стоматологов и общественности. Расширяя доступ к медицинской помощи, продвигая профилактические методы, внедряя технологические достижения, укрепляя сотрудничество и повышая доступность по цене, Узбекистан может проложить путь к более надежной и инклюзивной системе стоматологического здравоохранения.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ризаев, Ж. А., and X. П. Камилов. "К вопросу о классификации пародонта." *Сборник научных трудов, Алмаата* (2004): 163-167.
2. Djalolidinova Shakhlo Djamolidinovna. "BLEACHING AND AESTHETIC RESTORATION OF TEETH IN VIOLATION OF THEIR COLORS AND SHAPES". *Conferencea*, Dec. 2022, pp. 139-44, <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1723>.
3. Ризаев Ж.А., Абдашимов З.Б., Нурмаматова К.Ч., Усманбекова Г.К. Некоторые вопросы перспективного планирования в стоматологической службе республики Узбекистан/. *Stomatologiya*. №4.77.2019г.
4. Djalolidinova Sh.D. THE EFFECT OF REMOVABLE PROSTHESES ON THE ORAL MUCOSA // *Экономика и социум*. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-effect-of-removable-prostheses-on-the-oral-mucosa> (дата обращения: 20.11.2023).
5. Djalolidinova Sh.D. BIOETHICAL PROBLEMS IN OBSTETRICS AND GYNECOLOGY // *Мировая наука*. 2021. №11 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bioethical-problems-in-obstetrics-and-gynecology> (дата обращения: 20.11.2023)

6. Халилова Б. Р., Мусаева О. Т. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПОЛОСТИ РТА В УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 212-216.
7. Djalolidinova Sh.D. THE EFFECT OF DENTURES ON THE CONDITION OF THE ORAL CAVITY // Теория и практика современной науки. 2021. №12 (78). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-effect-of-dentures-on-the-condition-of-the-oral-cavity> (дата обращения: 20.11.2023).
8. Djalolidinova Sh.D. PAIN IN DENTISTRY: CAUSES OF TOOTHACHE // Теория и практика современной науки. 2022. №11 (89). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pain-in-dentistry-causes-of-toothache> (дата обращения: 20.11.2023).
9. Джалолидинова Ш. Д. Современные Методы Лечения Гипоплазии Зубов //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 991-993.
10. Халилова Б. Р., Мусаева О. Т., Толипова Г. К. ВЛИЯНИЕ ОДОНТОГЕННОЙ ИНФЕКЦИИ НА ОРГАНИЗМ БЕРЕМЕННЫХ ЖЕНЩИНЫ //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 245-251.
11. Mamatkulov B. et al. The Significance of Factors in Forming Attitude to Immunophrophylaxis and the Problems of Immunophrophylaxis. – 2023.
12. Одилжонова Н. И. РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ЗАБОЛЕВАНИЕ ВЫСОЧНО-НИЖНЕГО ЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА (ВНЧС) СРЕДИ ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-1 (108). – С. 662-665.
13. Rasulovna K. B. ODONTOGENIC INFLAMMATION IN PREGNANT WOMEN //EDITORIAL BOARD. – 2022. – С. 409.
14. KHALILOVA B. R. EFFECT OF ODONTOGENIC INFECTION TO PREGNANT WOMEN //ЭКОНОМИКА. – С. 137-140.
15. Джалолидинова Шахло Джамолидиновна. “ПРИМЕНЕНИЕ ПРОТЕЗОВ ПРИ ПРОГНАТИИ И ПРОГЕНИИ”. *Research Journal of Trauma and Disability*

Studies, vol. 2, no. 10, Oct. 2023, pp. 203-6,
<http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1388>

16. Каримова Гулжахон Тургузон кизи. “СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ЛЕЧЕНИЮ ПОРОДОНИТА: ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ”. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, Vol. 4, no. 6, Nov. 2023, pp. 308-12,
<https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/2035>.

17. Djalolidinova Shakhlo Djamolidinovna. (2022). Therapy of Postoperative Pain in Ambulatory Dental Practice. *Texas Journal of Medical Science*, 14, 165–167. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/2885>

18. Turgunovna, K. G. . “PREVALENCE OF CARIES IN CENTRAL ASIA AND MODERN METHODS OF TREATMENT”. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, vol. 3, no. 11, Nov. 2023, pp. 50-53,
<https://inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/2058>

NISBIYLIK NAZARIYASI: FIZIKADAGI INQILOB, FAZO VA VAQT HAQIDAGI TUSHUNCHANI

O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika va astronomiya o‘qituvchisi

Toirjonova Ruhshona

102 guruh talabasi

***Annotasiya:** Ushbu metodlarni qo‘llash orqali, o‘quvchi talabalarni fizika faniga yanada qiziqtirish, kuzatish va erkin fikrlash qobiliyatlarini oshirish, o‘zaro bahs-muozara yuritish, yakka tartibda yoki kichik guruhlardagi o‘z mustaqil fikrlarini, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.*

***Kalit so‘zlar:** sanoq tizimi, mexanika, yorug‘lik tezligi, nisbiylik nazariyasi, postulatlar, uzunlik, soat, zamonaviy metod, pedagogik texnologiya.*

Hozirgi zamon texnologiyalari va axborotlar asridir. Ayni vaqtda respublikamiz ijtimoiy hayotiga axborotlar juda katta tezlik bilan kirib kelmoqda. Yurtimizda juda ko‘p fanlar rivojlangan. Ma’salan, fizika, matematika, biologiya, kimyo, va boshqalardir. Bu fanlar ichida fizika fanini ham o‘rni boshqacha. Tabiatdagi hodisalar, moshinalar, uylar kabilar fizika asosida boladi. Fizika - tabiiy borliq haqidagi fan bo‘lib, tabiatning eng keng tarqalgan qonunlari, modda, uning tuzilishi, harakati va o‘zgarish qoidalarini o‘rganadi. Fizika bu tabiiy fandır, lekin undagi qonunyatlar va hisob - kitoblar aniqlikka asoslangan. Turli hodisalar va ularning sabablarini o‘rganish qadim zamon olimlarining bizgacha yetib kelgan asarlarida aks ettirilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika ta’limni rivojlantirishning asosiy muammolari O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 19.03.2021 yildagi «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-5032-son qaror bilan 2021–2023 yillarda Fizika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi: maktablarda fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish; fizika fani bo'yicha kadrlarni, xususan, qishloq joylardagi maktablarning o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish; ta'lim jarayoniga axborot – kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy qilish; yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning fizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish; fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash. Fizika elementar zarrachalardan to galaktikagacha bo'lgan — ob'ektlar va turli tuman hodisalarni o'rganadi. Fizikani o'rganish insonlarning bilish va mantiqan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Hozirgi jamiyatda har bir insonning muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun fizikadan sifatli bilimga ega bo'lishi davr talabi hisoblanadi. Fizika ilmiy — texnika taraqqiyoti va tabiiy–ilmiy bilimlarning asosi hisoblanadi. Mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyoti, tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni yechish, kosmosni o'zlashtirish, mudofa salohiyati, texnika va energetikaning rivojlanishi, fan manbalari uchun materiallar hamda zamonaviy texnologiyalarni yaratish kabi barcha yo'nalishlar fizika fani va fizika ta'limi darajasiga bog'liq. Fizikadan davr talablariga mos ravishdagi bilimlarga ega bo'lmasdan Vatanimiz ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli maqsadi va vazifalarini yechishda erishib bo'lmaydi. Mamlakatimizning rivojlanishi va hozirgi davrda texnologik jadal taraqqiyotga erishishda fizika ta'limi va fizikaning fan sifatida rivojlanishiga mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Jahon hamjamiyatining hozirgi rivojlanish davrida fizika na faqat tabiiy–ilmiy ta'limning rivojlanishiga asos bo'lib qolmasdan balki ,ijtimoiy–iqtisodiy–gumanitar ta'limning

bir qismi sifatida zamonaviy ilmiy fikrlashning paradigmasi ham bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi davrda fizika ta‘limi saviya (daraja) sini oshirish mamlakatimiz aholisini munosib sifatli kasbiy (ixtisosli) mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirishni ta‘minlaydi. Fizika o‘zining rivojlanish tarixida tabiatni o‘rganish (bilish) ning barcha samarali usullari haqida ko‘pgina foydali ma‘lumotlarni to‘pladi. Kuzatish, tajriba va modellashtirish fizikaning ilgari o‘tkazilgan barcha tadqiqotlarida foydalanilgan va bundan keyin ham foydalaniladi. Ushbu usullar nafaqat fizikada, balki boshqa fanlarda ham qo‘llaniladi. Fizikada tushunchalar, qonunlar va prinsiplarning nazariy va eksperimental tadqiqot usullarini mukammal ishlab chiqilgan o‘z tili mavjud. Hozirgi kunda ham fizika fani umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida eng muhim va asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika ta‘limini rivojlantirish va uni o‘rganish bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ushbu muammolarni quyidagi asosiy guruhlariga birlashtirish mumkin. Maktab fizika xonalarini asbob va uskunalari bilan ta‘minlanish muammosi—o‘quv dasturlarida berilgan barcha namoyishli tajribalar, uy sharoitida bajarilishi mumkin bo‘lgan tajribalar bo‘lib, XXI asr fan–texnika taraqqiyoti darajasidagi laboratoriya ishlari va namoyish tajribalari ko‘rsatilishi va bajarilishi uchun zarur laboratoriya va multimediyasi asbob va uskunalari yaratilishi va fizika laboratoriyasida mavjud bo‘lishi lozim. Zamonaviy kompyuterlar, shu jumladan, Internet tarmog‘i ta‘limda fizikani o‘rganishda bir qator ijobiy xususiyatlarga ega. Xususan, animatsion fizik modellar bilan o‘qitish dasturlari, kompyuterda namoyish etiladigan videolavhalar, avtomatlashtirilgan laboratoriya qurilmalari va boshqalar uzluksiz ta‘lim tizimida fizika fanini o‘qitishni zamonaviy darajasini oshiradi. Davlat ta‘lim standarti nafaqat ta‘lim mazmunini balki o‘qitishning rejalashtirilgan natijalarini, axbortlashgan ta‘lim muhitiga ma‘lum talablarni joriy qilishning tarkibiy qismi bo‘lib, moddiy–texnik va axborot bilan ta‘minlashi hisoblanadi. Jumladan, ushbu sharoitda olingan u yoki bu ta‘lim natijalari, ta‘lim dasturi mazmuniga bog‘liq. Agarda fizika dasturlari hamin qadar XIX–XX asr qobig‘ida shakllantirilgan bo‘lsa, davr talablariga muvofiq ravishdagi sifatli ta‘limni egallash imkoniyati bo‘lmaydi. Ta‘limning hozirgi kundagi

muhim ko'rsatgichlaridan biri, uning sifati, qaysiki, xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, ta'lim jarayonini tashkil qilishga bog'liq. So'ngi yillarda bir qator rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida o'z qarashlariga qarshi o'laroq asta sekin aniq va tabiiy–ilmiy fanlar sohasiga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Lekin so'ngi yillarda mamlakatimizda aniq va tabiiy–ilmiy ta'lim sifati pasayganligi kuzatilmoqda. Bilimlarni bunday pasayib borish tendensiyasi butun dunyo bo'ylab ildiz otib oxir oqibat ta'lim krizisiga olib kelishi olimlar tomonidan e'tirof qilinmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fani ta'limiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri –bu uni o'rganish uchun ajratilgan soat miqdorining kamligi bo'lib hisoblanadi. Mazkur soat miqdorini sinflar kesimida ko'paytirib uluksizlik va uzviylik prinsipi asosida o'rganilishini yo'lga qo'yish lozim deb hisoblayman.

Xulosa. Xozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish etibor kundan kunga kuchayib bormoqda bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni tayyor bilimni egallashga o'rnatilgan bo'lsa zamonaviy texnologiyalar bilan ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar asosiy figuraga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". T.. Ma'naviyat, 2008-yil
2. To'rayev. B. O Vaqt muammolari. T.1986
3. M. N. Raxmatov "Vatanimiz fiziklari" Toshkent 1983
4. "Fizikaning zamonaviy tadqiqot usullari " xalq ta'limi 2022

SO‘Z MANOLARI

Mumtozbeginm Turg‘unova

Xoreografiya jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

Abduhamidov Akmal

Ilmiy rahbar; O‘z DSMI FMF “Xoreografiya” o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada so‘z va uning asosiy manolari - denotativ va konnotativ manolari, ularning nutq jarayonidagi asosiy farqlari, shuningdek, umumistemol so‘zlar va nutqning ayrim turlari uchun xos bo‘lgan so‘zlar hamda ularning manolari bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** denotativ ma no, konnotativ ma no, umumistemol so‘zlari, funksional xususiyatlar, sinonimlar, uslubiy xoslik.*

Tilshunoslikning barcha bolimlarida organilishi mumkin bo‘ladigan lingvistik birlik so‘zdir. Zero, so‘z, nafaqat, lug aviy birlik balki morfologik sathda sintaktik aloqani vujudga keltiradigan muhim vositadir. Bu holatlar so‘zning denotative (atash) manosi bilan bogliq ravishda yuz beradi. So‘zning denotativ manosi uning til tizimida muhim lug aviy birlikligini anglatgansa, shu ma no bilan uzviy bog liq holda vujudga keladigan konnotativ mano so‘zning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uning uslubshunoslikning ham muhim tekshirish obyekti ekanligini namoyon etadi. Nutq uslublarida qollanilishi nuqtayi nazaridan so‘zlar: umumistemol so‘zlar va nutqning ayrim turlari uchun xos bolgan so‘zlar kabi ikki guruhga ajratiladi. 1. Umumistemol so‘zlar mohiyat jihatidan til lug at tarkibining asosini tashkil qiladi va barcha nutq turlarida tayanch lugaviy birlik sifatida qollaniladi. 2. Nutqning ayrim turlari uchun ham xoslangan so‘zlar bo‘lib, ular uslubiy jihatdan chegaralangan boladi. Masalan, kitobiy so‘zlar kitobiy nutq uchun xoslangan bolsa, ogzaki nutqning ham

uslubiy xoslangan soʻzlari mavjud. Shuningdek, ilmiy terminlar ilmiy nutq uchun, rasmiy atamalarning rasmiy nutqqa xosligi, eskirgan soʻzlar, dialektizmlar, argo va jargonlarning, asosan, badiiy nutqda qollanilishi soʻzlarning nutqlararo taqsimlanishi lingvistik ehtiyoj natijasi ekanligidan dalolat beradi. Keltirilgan mulohazalar soʻz, uning maʼnosi va uslubiy xoslanganlik munosabatlari koʻplab tadqiqotlar olib borilishi uchun asos boʻlishini koʻrsatadi. Matnda soʻzlar asl lugʻaviy manosidan tashqari kochma manolarda qollanish xususiyatlariga ham ega. Maʼno koʻchishi orqali vujudga keladigan mano soʻzning hosila maʼnosi hisoblanadi. Soʻzning hosila maʼnosi matn orqali anglashiladi. Shunday ekan, soʻz manisini asl yoki hosila mano ekanligi lugʻaviy birliklarning matniy qollanilishi asosida izohlash mumkin. Barcha lugʻaviy birliklar singari umumistemol soʻzlar ham turli maʼnolarda qollaniluvchi vositalardandir. Masalan, oʻpka soʻzi asl lugʻaviy maʼnosiga koʻra odam organizmining nomi. Shu maʼnoni ifodalashiga koʻra bu soʻz denotativ maʼnoga ega. Biroq, - Kerilmay oʻ! -, dedi jahil bilan Yoʻldosh ketgan tomonga qarab. -Hali ham oʻsha-oʻsha! Oʻpka! (OʻUsmonov "Girdob") gapidagi oʻpka soʻzi asl manosida qollanilmagan. Bu gapda ushbu soʻz hosila mano orqali "oʻziga bino qoygan" manosida qollanilgan. Bunday holatlarda koʻpincha hosila maʼno orqali soʻzlovchining munosabati ham ifoda etiladi. Yangi maʼno ifodasi va munosabat bildirilishi asosida bu xildagi lugʻaviy vositalar uslubiy vositaga ham aylanadi. Yuqorida keltirilgan "oʻpka" soʻzi orqali ham soʻzlovchining salbiy munosabati ifoda etilgan. Muhimi shundaki, nutq jarayonida hosila maʼno ifodalanishi muayyan tushunchani oldin ifoda etilmagan shakl orqali anglatib, badiiylik, obrazlilikni kuchaytirish vositasiga ham aylanadi. Masalan, Torga tor dunyo, u battar tutaqib ketdi. - Siz bolmay kim?! Qachon qarasa, qoynimni puch yongoqqa tolqazasiz? Siz tengilar hoʻ-oʻ qachon edi - yegani oldida, yemagani ketida (OʻUsmonov "Girdob"). Keltirilgan matnlarda ikki bor ishlatilgan "tor" soʻzlarining biri asl manosida sifat turkumi shaklida qollanilgan, ikkinchisi esa, "inson" maʼnosida metonimik mano ifodalagan. Shuningdek, "puch ong, oq" birikmasi orqali "amalga oshmaydiganlik", yegani oldida, yemagani ketida birikmalari bilan taʼminlanganlik" tushunchalarining ifodalanishi bu lugʻaviy vositalarning matnida denotativ va

konnotativ vazifadagi lug aviy birliklar ekanligidan dalolat beradi. Soʻzning turli ma nolarda qollanilib, muayyan vazifalarni bajarishi nutqqa xos boʻlib, nutq soʻzning ma no qirralarini namoyon etuvchi turli xususiyatlarini ozida mujassamlashtiruvchi manbadir. Soʻzning turli mano nozikliklariga ega ekanligi, ayniqsa, sinonim soʻzlar qollanilishida yorqin korinadi. Masalan, Saltanat erining orqasidan yeb qoʻygudek oqrayib turdi-da, qoʻlidagi alyumin tovoqni taraqlatib shkaf taxtasiga tashlab, u ham bolasi yotgan xonaga kirib ketdi (OʻUsmonov "Girdob"). Qaramoq soʻzi "biror narsa yoki tomonga koʻz tashlash, nazar tashlash" maʼnosidagi soʻz. 3. Tilda ushbu maʼnoni ifodalashda bundan tashqari "termilmoq, tikilmoq, nazar solmoq, qiyp boqmoq" kabi soʻz shakllari mavjud. Shuningdek, keltirilgan matndagi "oʻqraymoq" soʻzi ham qoʻllaniladi. Bunday soʻz qoʻllanishining muhim jihatlaridan biri tushunchaning turli darajalarda ifoda etilishidir. Chunonchi, tikilmoq soʻzida "koʻz uzmaslik" maʼnosi mavjud bolsa, oʻqraymoq soʻzida "nafratli qarash" maʼnosi mavjud. Soʻzlarning bu xildagi mano nozikliklaridan nutq yoʻnalishiga mos holda foydalaniladi. Yuqoridagi keltirilgan parchada soʻzlovchilarning bir-biriga yomob munosabarda boʻlgan holati tasvirlangan va ulardan biriga nisbatan "qaramoq" maʼnosidagi oʻqrayib soʻzi orqali munosabat bildirilgan. Sinonimik qatordagi soʻzlarning muhim jihatlarini bir xil maʼnoli, turli ma no boʻyoqlariga ega boʻlgan soʻzlar ekanligidir. Sinonimlardagi bu xususiyatlar ulardagi tasviriylikni belgilaydi va oddiy soʻzning hosila mano ifodalashi singari nutqiy imoniyatlarga ega boʻladi. Badiiy matnlarda lugʻaviy vositalarning asl maʼnosidan boshqa maʼnolarda qoʻllanilishi soʻzlarning keng imkoniyatlarga ega boʻlgan vosita ekanligini til birliklarining rang-barang xususiyatlari mavjudligidan dalolatdir. Masalan, nazariy masalalarni yechishga bel bogʻlagan odam, avvalo, oʻzi qomuschi boʻlmogʻi lozim (OʻUsmonov "Girdob"). Gapidagi "bel bogʻlamoq"ning hosila maʼnosi "ahd qilmoq". Soʻzlarning hosila ma no ifodalashi va sinonimik qatorlarni yangi soʻzlar bilan boyib borishining ham oʻzgacha xos qonuniyatlari bor. Chunonchi, hosila ma no hosil boʻlishida qiyoslash, oʻxshatish maʼnolari ham asos boʻlishi mumkin. Masalan, Hozir ham Azizning dili xufton! Koʻtarinki kayfiyatidan asar ham yoʻq (OʻUsmonov "Girdob") gapidagi xufton soʻzi "kun bilan tun

o'rtasidagi qorong'ulik payti"ni ifodalaydi. Qorong'ulikka qiyosam kishining xafaqon holati, ko'ngil noxushligi dili xufton ifodasi orqali ifodalangan. Sinonimlarda ham yangi so'zlar so'z ma'nosidagi nozikliklarni ifodalash maqsadida yaratiladi: Sergey Mashveevichning yelib - yugurib, kolxozga chiqib, ozgina yer olib bergan paytlarini xotirladi-yu, beixtiyor kulimsiradi (O' .Usmonov "Girfob") gapidagi "kulimsiradi" so'zi ham umumiy ma'noda "kulmoq" ma'nosini ifodalaydi. "Kulmoq" tushunchasini ifodalovchi boshqa so'zlardan farqli ravishda bu so'z kulgining past darajasidagi belgisini ifodalaydi. Bu so'z ifodasida "kulgi" ma'nosi emas, shu ma'nodagi so'zning sal bajarilishi ma'nosi mavjud. Bir umumiy tushunchani turli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev N., Usmonov S., Rasulov U. Ozbek tili. -Toshkent, "Oqituvchi, 1970. - B. 46.
2. Umurqulov B. Badiiy so'z jozibasi. -Toshkent: Muharrir, 2021. -B. 90.
3. Hojiyev A. Ozbek tili sinonimlarining izohli lugati. -Toshkent, Oqituvchi; 1974. -B. 249.
4. www.ziyo.uz
5. www.uzwekipediya.uz
6. www.uzbekensiklopediyasi.uz

ZAMONAVIY TELESKOPLARNING AXAMIYATI

O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Shavkatbekova Soxiba Ozodbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Nematjonova Zarnigor Jaxongir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Bu maqolada zamonaviy teleskoplar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Teleskop, fotografik, rentgen, oy optic, astronomiya, fanlar akademiyasi

Teleskop (**grekcha:** *τῆλε* [tele] — "uzoq" va *σκοπέω* [skopeo] — "qarayman") — osmon yoritqichlarini vizual, **fotografik**, fotoelektrik va spektral usullarda kuzatish uchun mo‘ljallangan astronomik optik asbob. Teleskop **Oy**, sayyoralar va yulduzlarning tasvirini kattalashtirib ko‘rsatadi. Ishi osmon yoritqichlari tarqatadigan elektromagnit nurlanishlarni tutishga asoslanadi. Teleskoplar gamma teleskop, **rentgen**, ultrabinafsha, **optik**, infraqizil va radioteleskop kabi turlarga bo‘linadi. Optik tizimiga ko‘ra, refraktor, reflektor, ko‘zgulinzali tizim va boshqa deb ataladi (linzalardan yig‘ilgan obyektivli teleskop refraktor, botiq ko‘zgulardan yigilgan obyektivli teleskop reflektor deyiladi). Teleskop obyektivi tushiradigan tasvirning masshtabi obyektivning fokus masofasiga, ya’ni yorug‘lik yig‘uvchi obyektiv bilan yoritqich tasviri hosil bo‘ladigan nuqta orasidagi masofaga mutanosib bo‘ladi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida O‘rta Osiyoda yagona,

ko'z gusining diametri 1,5 m bo'lgan teleskop va ko'p uyali yorug'lik matritsasiga ega bo'lgan Quyosh teleskopi bor teleskoplar turlari 80 ga yaqin turli xil teleskoplar mavjud, ammo ularning ko'pchiligi orasidagi farqlar juda nozik va faqat texnik nuqtai nazardan tegishli. Shuning uchun biz ushbu turlarning barchasini tuzib chiqdik va ularni elektromagnit nurlanish turiga va ularning asosiy dizayniga qarab asosiy oilalarga ajratdik.

Optic teleskop Biz teleskoplar haqida o'ylaganimizda, biz asosan optik teleskoplarni o'ylaymiz. Ular elektromagnit nurlanishning ko'rinadigan spektrga mos keladigan qismini qayta ishlashga qodir. U 780 nm (qizil) va 380 nm (binafsha) orasida to'lqin uzunligiga ega.

Boshqacha qilib aytganda, ular biz kuzatmoqchi bo'lgan ob'ektlardan yorug'likni oladigan teleskoplardir. Ushbu asboblarda ob'ektlarning aniq hajmini va yorqinligini oshirishga qodir. Yorug'likni qanday ushlash va qayta ishlashga qarab, optik teleskoplarni uchta asosiy turga bo'lish mumkin: refrakterlar, reflektorlar yoki katadioptrik nometall.

Sindiruvchi teleskoplar Sindiruvchi teleskop - tasvirlarni yaratish uchun linzalardan foydalanadigan optik teleskop. Diopterlar sifatida ham tanilgan, ular XVIII-asrning boshlarida ilg'or texnologiyalar joriy etilishidan oldin ishlatilgan va hali ham havaskor astronomlar tomonidan qo'llaniladi.

Bu teleskopning eng mashhur turi. U yorug'likni ushlaydigan va uni fokus nuqtasi deb ataladigan, ya'ni okulyar joylashgan joyga qaratadigan linzalar to'plamidan iborat. Yorug'lik nurlari bu yaqinlashuvchi linzalar tizimidan o'tayotganda sinadi (yo'nalish va tezlikni o'zgartiradi), bu uzoqdagi ob'ektlardan parallel nurlarning fokus tekisligidagi bir nuqtaga yaqinlashishiga olib keladi. **Bu sizga katta, yorqin va uzoq ob'ektlarni ko'rish imkonini beradi, lekin texnik darajada juda cheklangan.**

Reflektor teleskop Ko'rsatuvchi teleskop - tasvirni yaratish uchun linzalar o'rniga nometalldan foydalanadigan optik teleskop. U dastlab XVIII-asrda Isaak Nyuton tomonidan ishlab chiqilgan. Reflektorlar deb ham ataladi, ular ayniqsa havaskor astronomiyada keng tarqalgan, garchi professional rasadxonalar xuddi shu printsiptga

asoslangan, ammo murakkabroq dizaynga ega bo'lgan Kassegrain deb nomlangan variantdan foydalanadilar.

Ammo, **ular ikkita ko'zgudan yasalganligi muhimdir.** Ulardan biri trubaning oxirida joylashgan bo'lib, yorug'likni aks ettiradi va uni ikkilamchi oyna deb ataladigan oynaga yuboradi, bu esa o'z navbatida yorug'likni okulyarga yo'naltiradi. Refraktorlar bilan bog'liq ba'zi muammolarni hal qiladi, chunki linzalarni taqmaslik ba'zi xromatik aberatsiyalarni (bu qadar yorqinlik buzilishini emas) hal qiladi va ob'ektlarni, garchi ular refraktorlarga qaraganda pastroq optik sifatga ega bo'lsa ham, uzoqroqda ko'rish imkonini beradi. Shunday qilib, ular galaktikalar yoki chuqur tumanliklar kabi uzoqroqdagi zaif jismlarni kuzatish uchun foydalidir.

Katadioptrik teleskop Katadioptrik teleskop - tasvirni yaratish uchun linzalar va nometalllardan foydalanadigan optik teleskop. Ushbu turdagi teleskopning ko'plab turlari mavjud, ammo eng mashhuri biz yuqorida aytib o'tganimizdir: Kassegrain teleskopi. Ular hal qilish uchun mo'ljallangan **refraktorlar va reflektorlar bilan bog'liq muammolar.** Ular yaxshi optik sifatga ega (refraktorlar kabi baland emas), lekin ular sizga reflektor kabi uzoqdagi xira narsalarni ko'rishga imkon bermaydi. Ushbu turdagi teleskop uchta oynaga ega. Orqa sohada joylashgan asosiy oyna mavjud bo'lib, u to'plangan barcha yorug'likni spotlight deb ataladigan nuqtaga qaratish uchun konkav shaklga ega. Keyin oldingi ikkinchi qavariq oyna tasvirni birlamchi oynaga qaytaradi, bu tasvirni allaqachon nishonga yorug'lik yuboradigan uchinchi oynaga aks ettiradi.

Radioteleskop Biz erni butunlay o'zgartirdik va teleskoplarga qarashni davom ettirdik, ular teleskop bo'lsa-da, bizdagi teleskop tasvirlariga mutlaqo mos kelmaydi. Radioteleskoplar radioto'lqinlarga mos keladigan elektromagnit nurlanishni ushlaydigan antennadan iborat. **to'lqin uzunligi 100 mikrondan 100 kilometrgacha bo'lgan.** U yorug'likni ushlay o'rniga, samoviy jismlar chiqaradigan radiochastotalarni ushlaydi.

Infraqizil teleskop Infraqizil teleskoplar infraqizil nurlarga mos keladigan elektromagnit nurlanishni ushlay oladigan asbobdan iborat. **to'lqinlarining uzunligi**

15.000 nm dan 760-780 nm gacha bo'lgan to'liqlar, shuning uchun yorug'likni emas, balki infraqizil nurlanishni ushlaydigan ko'rinadigan spektrning qizil qismini cheklaydi. Bular nafaqat Yer atmosferasidagi interferensiyani butunlay yo'q qiladi, balki bizga galaktikaning "yuragi" haqida juda qiziqarli ma'lumotlarni ham beradi.

Roentgen teleskopi Rentgen teleskopi - rentgen nurlari spektrida elektromagnit nurlanish chiqaradigan osmon jismlarini ko'rishga imkon beradigan asbob. **0,01 nm dan 10 nm gacha bo'lgan to'liq uzunligi bilan.** Ular bizga yorug'lik chiqarmaydigan narsalarni, balki biz odatda radiatsiya deb ataydigan narsalarni, masalan, qora tuynuklarni aniqlashga imkon beradi. Yer atmosferasi bu rentgen nurlarining kosmosdan kirib kelishiga yo'l qo'ymagani uchun, bu teleskoplar sun'iy yo'ldoshlarga o'rnatilishi kerak.

Ultrabinafsha teleskop Ultrabinafsha teleskop, osmon jismlarini ko'rishga imkon beruvchi asbob ultrabinafsha spektrda elektromagnit nurlanishni, **to'liq uzunligi 10 dan 320 nanometrgacha**, shuning uchun u rentgen nurlariga yaqin nurlanishdir. Boshqacha aytganda, bu teleskoplar galaktikalar va oq mittilarning evolyutsiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Cherenkov teleskopi Cherenkov teleskopi - o'ta yangi yulduzlar yoki juda faol galaktik yadrolar kabi energetik ob'ektlardan gamma nurlarini aniqlaydigan asbob. **Gamma nurlanishining to'liq uzunligi 1 pikometr dan kam.** Hozirda dunyoda to'rtta shunday teleskop mavjud va ular ushbu gamma nurlarining astronomik manbalari haqida juda muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Umid qilamanki, ushbu ma'lumotlar bilan siz mavjud teleskoplarning turlari va ularning xususiyatlari haqida ko'proq bilib olishingiz mumkin.

Xulosa

Biz astronomiya fanini yaxshi o'zlashtirish uchun rivojlantirish teleskoplardan foydalanamiz. Teleskoplar zamonaviy bo'lsa qulayliklari va imkoniyatlari yaxshi bo'ladi. Zamonaviy teleskoplardan foydalangan holda fanni o'rganish bir munchaga osonlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Mamadazimov M., Umumiy astronomiya (universitetlar va pedgogika oliy oquv yurtlari uchun darslik). T.: Yangi asr avlodi, 2008 y.
- 2.Mamadazimov M., va boshqalar. Astronomiya kursi (Umumiy astronomiya) dan darslik
- 3.Bakulin P., Kononovich E., Moroz V. Kurs obshey astronomii. M.Nauka, 1997 g.
- 4.Mamadazimov M. "Astronomiyadan o'qish kitobi" –T. O'qituvchi 1992 y.
- 5.Mamadazimov M. "Astronomiya" O'rta umumta'lim maktablari uchun o'quv qullanma, T.,O'qituvchi, 2004 y.
- 6.Voronsov-Velyaminov B.A. Sbornik zadach i prakticheskix uprajneniye po astronomii M.Nauka. 1997 g.
- 7.Sherdanov Ch., Mamadazimov M., Sattarova B., Ilyaasov S. Umumiy astronomiya (kosmonavtika asoslari) kursidan amaliy mashgulotlar. T., TDPU, 2013.
- 8.Sherdanov CH., Sattarova B., Sattarov I., Ajabov A. Prakticheskiye zanyatiya po obshemu kursu astronomii (osnovi kosmonavti). T., izdatelstvo TGPU, 2013.

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA 4K TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH

Choriboyeva Zarnigor

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: M.A.Hamrayev

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonga yangi kirib kelgan 4K tamoyillaridan ona tili fanini o‘qitishda foydalanish uslublari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Kreativ fikrlash, kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik fikrlash.*

***Аннотация:** В данной статье описаны методы использования принципов 4К, недавно проникших в Узбекистан, в преподавании предмета родной язык.*

***Ключевые слова:** Креативное мышление, сотрудничество, коммуникабельность, критическое мышление.*

***Annotation:** This article describes methods of using the principles of 4K, which have recently penetrated into Uzbekistan, in teaching the subject native language.*

***Key words:** Creative thinking, collaboration, communication, critical thinking.*

Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan o‘quv-metodik komplekslari O‘MK asosini tanqidiy fikrlash, jamoaviy ushlar, ijodkorlik (kreativlik) va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi.

Ularni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar tomonidan o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashda qo'llanadigan namunaviy topshiriqlar o'rganib chiqildi va asos qilib olindi (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA)

O'quv metodik komplekslar faol o'quv jarayoni uchun to'liq materiallar to'plami: darsliklar, mashq daftarlari, o'quvchilar uchun uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Estudy electron ta'lim platformasi ham ushbu tizimga uyg'un tarzda kiritilgan. U matematika, tabiatshunoslik, informatika kabi fanlar bo'yicha o'quv kurslarni hamda egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun 300 dan ziyod ongni oshiradigan o'yinli vazifalarni o'z ichiga oladi. Platformadan dars davomida ham, bo'sh vaqtda ham foydalanish mumkin. O'quvchilar uning yordamida o'zlashtirgan materialni mustahkamlash bilan birga, mustaqil ravishda dasturdan ilgarilab ketishlari ham mumkin. Platforma TAS-IX tarmog'iga joylashtirilgan, bu esa undan bepul foydalanish imkonini beradi.

4K nima degani?

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi.

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan

yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda respublikadan yig'ilgan 300 dan ortiq trener o'qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o'qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

O'zbek tilini o'qitish tamoyilini ikkinchi tilni o'qitishning maqsad va mazmuniga nazariy va amaliy jihatdan mushtarakdir. Chunki eshitib tushunish, so'zlash, o'qish va yozish kabi til faoliyatining turlari bo'yicha barcha tillarni o'rgatishda bir xil umumiy didaktik usullar qo'llaniladi. Ona tilini o'qitishda faoliyat turlarining har biri bo'yicha ko'nikma va malakalar barobar rivojlantiriladi. Faqat o'qishga yoki matn mazmunini tushunishga e'tibor berilgan taqdirda so'z boyligi passiv shakllanadi. Ona tilida og'aki nutq, o'zaro fikr almashuv, muloqotga o'rgatish asosiy maqsad bo'lgani tufayli nutq faoliyatining so'zlash turiga ko'proq e'tibor beriladi. Lug'at bilan ishlash, Grammatik

materiallarini o‘rganish, o‘qish va yozish bo‘yicha olib boriladigan mashg‘ulotlarga ana shu nuqtayi nazardan yondashiladi.

Ona tili fani darsida 4K tamoyillarini quyidagi metod orqali qo‘llash mumkin:

“Klaster” metodi – bu metodda ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida bo‘lgan ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi o‘qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta‘lim oluvshilar o‘qib-o‘rganishni yuqori darajada bo‘lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvoffiqlashtirishda tashabbuskorligini va mas‘uliyat, qo‘llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr muohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bunda sinf uch guruhga bo‘linadi, har bir guruhga bittadan klaster tarqatiladi. Har bir guruh klasterini mavzuga doir so‘zlar bilan to‘ldirishi kerak. Bu vazifani bajarishda guruhlar **jamo**a bo‘lib ishlashi, **kommunikativ** sifatlaridan foydalanishi, **kreativ fikrlashi** kerak bo‘ladi. Vazifani bajarib bo‘lgach guruhlar bir-birini baholaydi, bunda ulardan **kritik fikrlash** talab qilinadi.

Har taraflama mustaxkam, qudratli davlatni barpo etish uchun albatta bilimli, yuksak axloqiy sifatlar egasi, nozikta’b, sezgir, tezkor, mushkul vaziyatlarda ham o‘z maqsadini amalga oshiradigan tadbirkor, nizo va kamchiliklarni bartaraf eta biladigan, insonning ruhiyatini anglay oladigan, boshqaruv ilmi egasi bo‘lgan irodali, kuchli shaxs davlatni boshqarishi talab etiladi. Amir Temur o‘z davrining ana shu talab va

¹ “Temur Tuzuklari” Toshkent “Yangi nashr” – 2019

extiyolariga javob bera olgan davlat arbobi edi. U davlat boshlig'ini davlat va xalqning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishdagi asosiy vositachi deb bilgan. Yaxshi hukmdor davlat tepasiga kelsa "atrof-tevarakdagi fasodchilar tama' qilishni tark etib, itoatu bo'ysunish yo'lga kiradilar"¹-, deb ta'lim bergan.

Amir Temur qat'iyat bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishgan, davrining eng zukko kishilarini pirlari deb tan olgan, olimlarning yordamiga tayangan. U o'ziga muxolifatda bo'lgan dushmanlarining kuch va imkoniyatlaridan davlat taraqqiyoti yo'lida foydalangan.

Sohibqiron saltanat va qo'shni mamlakatlarda sodir bo'layotgan voqea xodisalarni sergaklik bilan kuzatgan hamda extimoli bo'lgan xavf-xatarlarni oldini olgan.

Amir Temur biror ishni boshlasa doimo uni muvaffaqiyatli yakunlashga intilgan. Moliyaviy siyosatni to'g'ri yuritgani ham uning muvaffaqiyatlariga zamin bo'lib xizmat qilgan. U kirim va chiqimlarni, sarf-xarajatlarni me'yorida olib borgan, yo'qsillarga doimiy ravishda xayr-exsonlar in'om etib turgan, ilm-fanga homiylik qilgan.

U dunyoning eng yirik saltanatlaridan birini barpo etgan qudratli hukmdor bo'lsa-da, umrining oxirigacha sofdil va kamtarin inson bo'lib qolgan.

Amir Temurning davlat rahbari sifatida o'zi tuzgan davlat taraqqiyotida bemisl o'rni bor. Ushbu saboqlar "davlat boshlig'i mukammal davlat qurishning muxim vositasi bo'lib, u davlat ijtimoiy-siyosiy organizmining yuragi hisoblangan va barcha olib borilgan islohotlar bevosita Amir Temurning raxbarlik salohiyati orqali amalga oshirilgan. Bu noyob iqtidor va fidoiylik Amir Temur siyosiy mavqeining mustahkamlanishiga zamin bo'lib xizmat qilgan",- degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan asoslanadi va diniy axloq ustiga quriladi. Shuning uchun ham Temur nazarida har qanday siyosatning muvaffaqiyati podshohning o'z fuqarolariga bo'lgan rahmdilligi, saxovatida-dir. Qur'onda «Taxlaku bi-axloq Alloh» deyilganidek, – deb yozadi Temur,

¹ Низомиддин Шомий "Зафарнома" III АРҚ Т— 1997 б 81

– agar podshoh, biror gunohkorning gunohini kechirsa, bu bilan fuqarosiga rahm qilgan bo‘ladi. Mening barcha ishlarimda ana shunday podshohlar menga ibrat bo‘ldi»¹.

Temur o‘z siyosatida ham adolat, haqqoniylik, odillikka tayanib ish tutdi. Chunki o‘z siyosatida haq yo‘lini tanlagan. Temur bundan boshqa siyosat yuritishi mumkin emas edi. U nimaiki qilsa, shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Bu esa Temurning o‘z piri Abu Bakr Toyibodiyning «rosti-rasti» ya’ni «haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan» hikmatini, Ibn Arabshohning yozishicha, Temur o‘z tamg‘asiga muhr sifatida o‘rnashtirgan edi.

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo‘lganligi hamda uning sifatleri haqida juda ko‘p mualliflar o‘z fikrlarini aytganlar. Ammo aynan uni ko‘rib, suhbat qilgan kishilar Ibn Xaldun, don Klavixo hamda Temurning maslahatchisi va, ayniqsa, g‘arb mamlakatlariga yuborilgan xristian elchisi Ioann Fransiskning, hozirda Parij milliy kutubxonasida saklanayotgan xotiralari, ayniqsa, qimmatli, ishonchli dalildir. «Amir Temur fors, arab va turk tillarini biladi. Qur‘on ilmi va Islom huquqshunosligi ilmida shu qadar kuchli olimki hech bir musulmon olimi u bilan munozara kilishga qodir emas, u olim va shoirlarga katta hurmat ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, uning o‘zi olim va donishmanddir»².

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari o‘z davrida uning saltanatini yanada mustahkam bo‘lishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o‘rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir. Bu esa xalqimiz kelajagi uchun adolatli turmush tarzi yaratib berish yo‘lida qilinayotgan say-harakatlarning samarasidir.

¹ Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. –Toshkent, 1991.-258 b.

² Bo‘riyev O - “Termuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo” Toshkent “O‘zbekiston” – 1997 b.116

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “ Temur Tuzuklari” Toshkent “Yangi nashr” – 2019
2. Ahmedov B “Amir Temur davlatini idora qilish siyosati” / “Amir Temurni yod etib”- Toshkent “O‘zbekiston” – 1996
3. Bo‘riyev O - “Termuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo” Toshkent “O‘zbekiston” – 1997
4. Muiniddin Natanziy. Muntahab at- tavorix. –Toshkent, 1991.-258 b.
5. Низомиддин Шомий “Зафарнома” Ш АРҚ Т— 1997 6 81

ВЫБОР ТАКТИКИ ЛЕЧЕНИЯ ПОЛИПОЗНОГО РИНОСИНУИТА ПРИ СОЧЕТАНИИ С ВАЗОМОТОРНЫМ РИНИТОМ

Курбанов Элмурод Хушвактович,

Бионур Мед Сервис к.м.н оториноларинголог,

Dr.Kurbanov.66@mail.ru

Аннотация: В данной научной работе оценена клиническая характеристика эффективности лечения полипозного риносинусита и вазомоторного ринита, что определяет роль и место эндоскопической полипозэтомидотомии с лазерной коагуляцией нижних носовых раковин в комплексном лечении этой патологии. Необходимость восстановления носового дыхания при полипозных риносинуситах и вазомоторного ринита с целью снижения тяжести сочетанной патологии научно обоснованы. Под наблюдением находилось 110 больных в клинике “BIONUR MED SERVICE в возрасте от 19 до 55 лет больные с полипозным процессом полости носа в сочетании с вазомоторным ринитом. Для тактики лечения пациентов с полипозным риносинуситом в сочетании с вазомоторным ринитом полипы удаляют эндоскопическим путем из полости носа и одновременно проводят лазерную коагуляцию (YAG (гольмий) — лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин. Пациентам с полипозным риносинуситом с сочетанной патологией полости носа рекомендуется лечение Димиста и эфирным маслом Аниса, чтобы предотвратить рецидив заболевания.

Ключевые слова: вазомоторный ринит, полипоз носа, лазерная коагуляция, Демиста, эфирная масло Анис, эндоскопическая полипотомия, голмий лазер, полипозэтомидотомия.

VAZOMOTOR RINIT BILAN BIRGALIKDA POLIPOZ RINOSINUSITNI DAVOLASH TAKTIKASINI TANLASH

Kurbanov Elmurod Xushvaktovich,

Bionur Med Service. t.f.n otorinolaringolog

Dr.Kurbanov.66@mail.ru

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ishda polipoz rinosinusit va vazomotor rinitni davolash samaradorligining klinik tavsifi baholandi, bu ushbu patologiyani kompleks davolashda pastki chig'anoqlarning lazer koagulyatsiyasi bilan endoskopik polipoetmoidotomiyaning o'rnini belgilaydi. Birgalikda yuzaga kelgan patologiyaning kechishini og'irlik darajasini kamaytirish uchun polipoz rinosinusit va vazomotor rinit bilan burun nafasini tiklash zarurati ilmiy asoslangan. Kuzatuv ostida "Bionur MED SERVICE" klinikasida 19 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan 110 nafar bemor vazomotor rinit bilan birga burun bo'shlig'ining polipozli jarayoni bilan og'irgan bemorlar bor edi. Vazomotor rinit bilan birgalikda polipoz rinosinuit bilan og'irgan bemorlarni davolash taktikasi uchun poliplar burun bo'shlig'idan endoskopik usulda olinadi va shu bilan birga pastki chig'anoqlarning lazer koagulyatsiyasi (YAG (golmiy) — lazer $\lambda=2,1$ mkm) amalga oshiriladi. Burun bo'shlig'ining qo'shma patologiyasi bo'lgan polipoz rinosinusit bilan og'irgan bemorlarga kasallikning qaytalanishini oldini olish uchun mahalliy Demista va Anis efir moyi bilan davolash tavsiya etiladi.*

***Kalit so'zlar:** vazomotor rinit, burun polipozi, lazer koagulyatsiyasi, joygacha, anis efir moyi, endoskopik polipotomiya, golmiy lazer, polipoetmoidotomiya.*

THE CHOICE OF TACTICS FOR THE TREATMENT OF POLYPOUS RHINOSINUSITIS IN COMBINATION WITH VASOMOTOR RHINITIS

Kurbanov Elmurod Xushvaktovich

Bionur Med Service PhD otorhinolaryngologist

Dr.Kurbanov.66@mail.ru

Abstrakt: *This scientific work evaluates the clinical characteristic of the effectiveness of the treatment of polypous rhinosinuitis and vasomotor rhinitis, which determines the role and location of endoscopic polypoetmoidotomy with laser coagulation of the lower nasal concha in the complex treatment of this pathology. The need to restore nasal breathing in polypous rhinosinuitis and vasomatory rhinitis in order to reduce the severity of the combined pathology is scientifically substantiated. 110 Patients in the BIONUR MED SERVICE were cared for at the age of 19 to 55 years by patients with a polypous nasal cavity process in combination with vasomotor rhinitis. For the treatment of patients with polypous rhinosinuitis in combination with vasomotor rhinitis, the polyps are removed endoscopically from the nasal cavity and at the same time laser coagulation (YAG (holmium) laser ($\lambda = 2.1 \mu\text{m}$) of the lower nasal conchae is performed. In patients with polypous rhinosinusitis with combined pathology of the nasal cavity, treatment with dimist and anise essential oil is recommended to prevent recurrence of the disease.*

Keywords: *vasomotor rhinitis, nasal polyposis, laser coagulation, To the spot, Anise essential oil, endoscopic polypotomy, holmium laser, polypoethmoidotomy.*

Актуальность проблемы. Полиполипозный риносинусит (ПРС) представляет собой одно из самых распространенных хронических заболеваний полости носа и придаточных пазух.[1]. Однако, несмотря на широкую распространенность ПРС, на сегодняшний день нет единой точки зрения о целесообразности использования разных групп препаратов в его лечении, хотя давно известно, что он представляет собой воспалительное заболевание вызванное бактериями, грибами, вирусами и аллергическим процессом[5.6].

Неослабевающий в течение ряда десятилетий интерес оториноларингологов к проблемам диагностики и лечения полипозного риносинусита (ПРС), являющегося основной причиной затрудненного носового дыхания и anosмии, сегодня приобретает еще большее медицинское и социальное значение. Настоящее обстоятельство связано не только с увеличением количества больных полипозным риносинуситом в Узбекистане и ближнего зарубежья. Исходя из этого несмотря на достигнутые успехи в изучении этиопатогенеза данного заболевания и внедрение в практическую оториноларингологии диагностики и лечения полипозного процесса инновационных разработок, рост заболеваемости и рецидивирование полипоза не имеют тенденции к снижению. Число послеоперационных рецидивов остается высоким и нередко достигает 40—50% с частотой повторения 3—4 раза в год [1—7]. Многочисленные научные работы и изыскания, посвященные вопросам противорецидивной терапии полипозного риносинусита, не снимают проблемы поиска наиболее эффективных методов устранения назальной обструкции, позволяющих максимально длительно сохранять адекватность носового дыхания. Вследствие нарушения носового дыхания при полипозном риносинусите в организме развивается как органная, так и тканевая гипоксия [6]. Сложность решения данной проблемы связывают с полиэтиологичностью рассматриваемого заболевания, обуславливающей воспаление и сопряженные с ним иммунобиохимические расстройства. Полипозный процесс полости носа часто сочетается с искривлением носовой перегородки и вазомоторным ринитом.

Цель исследования. Дать клиническую характеристику эффективности лечения полипозного риносинусита и вазомоторного ринит определить роль и место эндоскопической полипозэтомидотомии с лазерной коагуляцией нижних носовых раковин в комплексном лечении данной патологии. Научно обоснованы необходимость восстановления носового дыхания при

соответствующих патологиях и ее роль в уменьшении тяжести течения полипозного риносинюита.

Материал и методы. Под наблюдением находилось 110 больных в клинике “BIONUR MED SERVICE в возрасте от 19 до 55 лет больные с полипозным процессом полости носа в сочетании с вазомоторным ринитом. Для тактики выбора лечения больных с полипозом носа в сочетании с вазомоторным ринитом пациенты были распределены на 2 группы. В 1-й группе 55 больным с полипозным риносинюитом в сочетании с вазомоторным ринитом произведена эндоскопическая полипотомия и консервативное лечение вазомоторного ринита. Во 2-й группе у 55 больных с полипозным риносинюитом в сочетании с вазомоторным ринитом эндоскопически удалены полипы из полости носа и одномоментно лазерная коагуляция (YAG (гольмиевый) лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин. Среди обследованных больных полипозным риносинюитом с вазомоторным ринитом преобладали мужчины (89,6%), женщины составляли 19,4%. Аллергологический анамнез был отягощен у 5 больных в 1 группе, у 7 больных во второй группе лекарственная аллергия была у 4 больных в 1 группе 3 больных во 2 группе, пищевая аллергия в 1 группе больных не отмечалась - у 2 больных во 2 группе пищевая аллергия на цитрусовые.

В 1-й группе среднетяжелые и тяжелые формы полипозного риносинюита до проведения оперативного лечения составляли 80,5%, после операции - 64%, а во 2-й группе - 84,5% и 54,5% соответственно.

Результаты. Следует отметить, что во второй группе после проведения одномоментно эндоскопической синусотомии с одномоментно лазерной коагуляцией (YAG (гольмиевый) лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин отмечалось увеличение процента легких форм и достоверное ($p < 0,001$) снижение тяжелых форм полипозного риносинюита. Учитывая побочные эффекты медикаментозной терапии и его побочных действий на организм больного, представляет интерес применение лазерной

коагуляции (YAG (гольмиевый) лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин у больных ПРС в сочетании вазомоторным ринитом. Применение лазерной коагуляции (YAG (гольмиевый) лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин способствует улучшению носового дыхания в послеоперационном периоде у больных полипозным риносинуситом. Через месяц с целью предотвращения рецидива всем больным рекомендован препарат Димиста и эфирное масло Аниса обыкновенного, выделенного из надземной части и семена методом гидродистиляции.[5] Ароматерапии проводили с использованием ультразвукового ингалятора “Ultrasonic Nebulizer LD-250U” с продолжительностью 2-3 минута 1 раз в день в течение 8-10 дней. Курс лечения повторяли каждый 3 месяца.

Критериями эффективности лечения были: данные функционального состояния полости носа (дыхательная обонятельная функция полости носа динамика данных компьютерной томографии околоносовых пазух, диагностической эндоскопии полости носа, а также анализ обращаемости больных.

Результат лечения оценивался по следующей схеме:

Хороший результат: отсутствие жалоб у больного(прекращались выделения из носа и приступы чихания, отсутствие обострений аллергического процесса, восстановилось носовое дыхание и обоняние, полипы не определяются при передней риноскопии (но могут выявляться участки полипоза при эндоскопии околоносовых пазух), рекомендуется профилактическое лечение аллергии и полипозного риносинусита.

Удовлетворительный результат: жалобы больных незначительное нарушение носового дыхания, отсутствие обострения аллергического процесса в оперированных пазухах, мелкие полипы в полости носа, определяемые при передней риноскопии, незначительное нарушение носового дыхания, периодически требуется консервативное лечение аллергии и полипозного риносинусита по стандарту;

-Без улучшения: жалобы больных на частые приступы чихания отсутствие носового дыхания и обоняния, головные боли, кашель частые обострения аллергического процесса рецидив полипоза или обострение воспалительного процесса в пазухах, требующие реоперации. Отдаленные результаты лечения представлены в табл.

Результат лечения	1я группа	2.- группа.
Хороший результат	33 (60%)	37 (67.27%)
Удовлетворительный результат	12 (21.8%)	15 (27.27%)
Без улучшения	10 (18.2%)	3 (5.45%)
Всего	55	55

После проведенной тактике лечения в 1 и 2 группе больных наблюдалось рецидив заболевания, поэтому для предотвращения рецидива нами рекомендован в комплексе лечения Димиста и фитопрепарат АНИС. Мы считаем целесообразно применение этих препаратов в после операционном периоде поскольку все операции выполнялись в соответствии с правилами функциональной хирургии, и из пораженных пазух удалялись только крупные полипы, а остальная слизистая оболочка сохранялась даже в тех случаях, когда была утолщенной или отечной. В ряде случаев, несмотря на проводимое лечение, слизистая оболочка пораженных околоносовых пазух оставалась резко утолщенной, хотя эти изменения никак не проявлялись клинически.

Выводы. 1.Своевременное проведение эндоскопической синусотомии одновременно с лазерной коагуляцией (YAG (гольмиевый) лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин способствовало более стойкому восстановлению носового дыхания и других показателей функционального состояния полости носа.

2. В целом данное исследование подтвердило, что препарат Димиста и эфирные масло АНИС, назначенная в послеоперационном периоде после эндоназальной полисинусотомии с лазерной коагуляцией (YAG (гольмиевый) лазер ($\lambda=2,1$ мкм) нижних носовых раковин, может в большинстве случаев купировать послеоперационный реактивный отек слизистой оболочки и предотвратить ранний рецидив полипоза.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Черныш А.В., Садовский В.И., Сухарев А.А. Ошибки в диагностике и лечении полипозного риносинусита. Российская ринология. 2010;3(18):34-35. [Chernysh AV, Sadovskii VI, Sukharev AA. Oshibki v diagnostike i lechenii polipoznogo rinosinusita. Rossiiskaya rinologiya. 2010;3(18):34-35.(InRuss.)].

2. Пискунов Г.З. Современная оценка функциональной риносинусохирургии. Российская ринология. 2009;2:69-70. [Piskunov GZ.Sovremennaya otsenka funktsional'noi rinosinusokhirurgii. Rossiiskaya rinologiya.2009;2:69-70.(InRuss.)].

4. Вохидов У.Н., Хасанов У.С. Аспекты комплексного лечения хронического полипозного риносинусита. Российская ринология. 2013;2:63.[Vokhidov UN, Khasanov US. Aspekty kompleksnogo lecheniya khronicheskogopolipoznogo rinosinusita. Rossiiskaya rinologiya. 2013;2:63.(InRuss.)].

5. Browne JP, Hopkins C, Slack R, Topham J, Reeves B, Lund V, Brown P, Copley L, van der Meulen J. Health-related quality of life after polypectomy with and without additional surgery. Laryngoscope. 2006;116(2):297-302. <https://doi.org/10.1097/01.mlg.0000198338.05826.18>

6. Машкова Т.А., Мальцев А.Б., Неровный А.И., Бакулина Л.С. Роль блокатора лейкотриеновых рецепторов в восстановлении носового дыхания у больных полипозным риносинуситом. Вестник оториноларингологии. 2017;82(5):32-35. [Mashkova TA, Mal'tsev AB, Nerovny AI, Bakulina LS. The role of a leukotriene receptor antagonist in the restoration of the nasal breathing in the

patients presenting with polypous rhinosinusitis. Vestnik otorinolaringologii. 2017;82(5):32-35. (In Russ.)]. <https://doi.org/10.17116/otorino201782532-35>

7. Лопатин А.С. Ринит. Руководство для врачей. М.: Литтерра; 2010. [Lopatin AS. Rinit. Rukovodstvo dlya vrachei. M.: Litterra; 2010. (In Russ.)].

8. Isakadze AL, Eliava GG, Topuria ES, Svanishvili TR, Kasradze PA, Mzhavanadze RG, Balashvili MI, Topuria LS. Action of professional factors on orl-organs and significance of rehabilitation of nasal breathing disorders in complex treatment of motor disturbances. International Scientific Review. 2017;4(35):82-85.

LIST OF USED LITERATURE

1. Chernysh A.V., Sadovsky V.I., Sukharev A.A. Errors in the diagnosis and treatment of polypous rhinosinusitis. Russian rhinology. 2010;3(18):34-35. [Chernysh A.V., Sadovsky V.I., Sukharev A.A. Errors in the diagnosis and treatment of polypous rhinosinusitis. Russian rhinology. 2010;3(18):34-35.(in the Russian version.)].

2. Piskunov G.Z. Modern assessment of functional rhinosinusosurgery. Russian rhinology. 2009;2:69-70. [Piskunov G.Z. Modern assessment of functional nasopharyngeal surgery. Russian rhinology.2009;2:69-70.(in the Russian version)].

3. Vohidov U.N., Hasanov U.S. Aspects of complex treatment of chronic polypous rhinosinusitis. Russian Federation. 2013;2:63. [Vohidov U.N., Hasanov U.S.]. Aspects of complex treatment of chronic polypous rhinosinusitis. Russian rhinology. 2013;2:63. (in the Russian version)].

4. Brown J.P., Hopkins S., Slack R., Topham J., Reeves B., Lund W., Brown P., Copley L., van der Meulen J. Health-related quality of life after polypectomy with and without additional surgery. Laryngoscope. 2006;116(2): 297-302. <https://doi.org/10.1097/01.mlg.0000198338.05826.18>

5. Mashkova T. A., Maltsev A. B., uneven A. I., Bakulina L. S. Role Leukotriene receptor blockers in nasal restoration respiration in patients with polypous rhinosinusitis. Bulletin of otorhinolaryngological medicine. 2017;82(5):32-35. [Mashkova T.A., Maltsev A.B., Nerovny A.I., Bakulina L.S.]. The role of a leukotriene

receptor antagonist in restoring nasal breathing in patients with polypous rhinosinusitis. Bulletin of otorhinolaryngological medicine. 2017;82(5):32-35. .
<https://doi.org/10.17116/otorino201782532-35>

6. Lopatin A.S. Rhinitis. A guide for doctors. M.: Litterra; 2010. Lopatin A.S. Rhinitis. A guide for doctors. M.: Litterra; 2010. (in the Russian version)].

7. Isakadze Al., Eliava G.G., Topuria E.S., Svanishvili T.R., Kasradze P.A., Mzhavanadze R.G., Balashvili M.I., Topuria The general influence of professional factors on the respiratory organs and the importance of rehabilitation of nasal breathing disorders in the complex treatment of motor disorders. International Scientific Review. 2017;4(35):82-85.

BOLALARNI KITOB O‘QISHIGA QIZIQTIRISH USULLARI

*“Bugun kitob o‘qigan bitta bola ertaga televizor ko‘rayotgan
o‘nta bolani boshqaradi”*

Shavkat Mirziyoyev

Isxakova Nasiba Sanjarovna

TDYU Axborot – resurs markazi direktor o‘rinbosari-bo‘lim boshlig‘i,

1-darajali yurist:

Elektron pochta: nasijodi2@gmail.com

Olimova Zebiniso Yusufovna

TDYU Axborot – resurs markazi Bosh kutubxonachi

3-darajali yurist:

Elektron pochta: zolimova915@gmail.com

Shamayeva Dilnara Turamurotovna

TDYU Axborot – resurs markazi xodimi

3-darajali yurist:

Elektron pochta: dilnarashamayeva10@gmail.com

ANNOTATSIYA

Farzand tarbiyasi eng mas‘uliyatli amallardan bo‘lib insondan sabr-toqat, ulkan mehr-muhabbat talab qiladi. Har bir ota-ona farzandini o‘qimishli, bilimdon bo‘lishini istaydi, ammo barcha bolalar ham kitob o‘qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, har qanday bolani kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin.

Kalt so‘zi: Bolalarni o‘qishga qiziqtirish, kitob, kutubxona, bolalar adabiyoti, ota-onalar, kitobxonlik.

METHODS OF INTERESTING CHILDREN IN READING BOOKS

ABSTRACT

Raising a child is one of the most responsible actions and requires a lot of patience and love from a person. Every parent wants their child to be educated and knowledgeable, but not all children like to read books. However, any child can be interested in reading books.

Keywords: *Getting children interested in reading, book, library, children's literature, parents, reading.*

KIRISH

Agar bolangizga kitob mutolaasini odat qildirmoqchi bo'lsangiz, uni rivojlantirishning bir qancha usullari mavjud. Siz farzandingizga istagan kitobni o'qishga yordam qilganingizda, adabiyotning sarlavhasi, yorqin suratlardagi, ranglari rang-barang bo'lishi muallifning ism sharifi, adabiyotga berilgan annotatsiyasi, sharhi bilan tanishib chiqing. Odatda insonlar kitob mutolaasida o'zining hayotdagi dunyoqarashi va ichki kechinmalaridan kelib chiqib kitob tanlaydi. Bunda detektiv, psixologik, romantik, drama janrlardagi adabiyotlarini tanlashadi. Bolalarda esa qiziqishi nimaligini aniqlab olib kitob tanlashimiz mumkin. Bunda asosan bolalar adabiyotning rang-barangligi rasmlariga qarab kitobxon o'ziga yoqqan yoki o'zini qaysi qahramonlar qiziqтира shundan kelib chiqqan kitoblarni o'qisa unga juda qiziqarli bo'lib ko'rinadi, o'ziga ma'qul bo'lmagan kitob esa unga qiziqarli bo'lmaydi. Agarda farzandingizda kitob o'qishga umuman qiziqish va istak bo'lmasa siz quyidagi tavsiyalarimizni o'zingizda, oila a'zolaringizda sinab ko'ring:

1-usul: Shaxsiy kutubxona yarating

Eng yaxshi usullardan biri bu sizning uyingizda shaxsiy kutubxona yaratishdir. Uni bolalaringiz yaxshi ko'radigan kitoblar bilan to'ldiring va ularni yaxshi

saqlang. Har kuni oilaviy kitob o'qish uchun vaqt ajratib, ularni o'qishga undang. Ular sizni o'qiyotganingizni ko'rishlariga imkon bering va ular bilan o'zingiz yoqtirgan kitoblar haqida suhbatlashing. Shuningdek, siz o'qish uchun ularni sevimli bolalar o'yingohiga olib borish yoki yangi kitob sotib olishga ruxsat berish kabi mukofotlarni taklif qilishingiz mumkin. Farzandingizga kitob o'qishni qiziqarli va hamma sharoitlarini yaratib bersangiz bolalaringizda kitobga bo'lgan mehrni rivojlantirishga yordam berasiz.

2-usul: Farzandingiz bilan kitob o'qish uchun har kuni vaqt ajrating.

O'qishga vaqt ajratish - bolalaringizni kitob o'qishga qiziqtirishning eng yaxshi usullaridan biridir. O'qish uchun vaqt topish. Ammo sizning vaqtingiz chegaralangan bo'lishi mumkin. Lekin kuniga kichik miqdor ham ajratilgan vaqtingiz bolangizga kitob o'qishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Farzandlaringizga o'qimoqchi bo'lgan kitoblarini tanlashga ruxsat bering, lekin ularga yoqadi deb o'ylagan bir nechta kitobni unga yaqin atrofda qo'ying. Bundan tashqari, ovoz chiqarib o'qing yana bir-biringiz bilan navbatma-navbat almashtirib o'qing shunda bolangiz yana ham qiziqishi ortadi.

3-usul: Qo'lingizda turli xil kitoblar olib yuring.

Ularning qiziqishini uyg'otishning yana bir eng yaxshi usullaridan biri bu qo'lda turli xil kitoblar bo'lishidir. Agar ular o'zlarini qiziqtirgan mavzular bo'yicha kitoblar borligini ko'rsalar, ulardan birini olib, o'qishni boshlashlari ehtimoli ko'proq. Misol uchun, agar bolangiz avtomobillarga qiziqsa, avtomobillar haqida kitoblar borligiga ishonch hosil qiling. Siz ularni kutubxona yoki kitob do'koniga olib borib, o'z kitoblarini tanlashiga ruxsat berishingiz mumkin. Ularga turli xil variantlarni taqdim etish orqali siz ular uchun o'qishni yanada oson va qiziqarli qilishga yordam bera olasiz.

4-usul: Ular sizni o‘qiyotganingizni ko‘rishlariga imkon bering.

Bolalarni o‘qishga ilhomlantirish uchun oldinga intilayotganda, siz qila oladigan eng yaxshi narsalardan biri bu sizning o‘qiyotganingizni ko‘rishga imkon berishdir. Yaxshi kitob o‘qiysizmi, so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lasizmi yoki xattoki elektron pochtingizni tekshirasizmi, bolalar sizdan o‘rnak oladilar. Agar ular sizni o‘qiyotganingizni ko‘rsalar, ehtimol o‘zlari o‘qishni xohlashadi. Lekin, albatta, bu ularni siz bilan birga o‘tirishga va o‘qishga majburlash kerak degani emas. Buning o‘rniga, o‘qishni kundalik tartibingizning bir qismiga aylantirishga harakat qiling. Misol uchun, ular sizni ertalab, kechki ovqat pishirishni kutayotganingizda yoki hatto yotishdan oldin o‘qiyotganingizni ko‘rishlariga imkon bering.

5-usul: Kitob o‘qishni qiziqarli o‘yinga aylantiring, Uyqudan oldin ertaklar, hikoyalar aytib bering.

Yotishdan oldin oilaviy o‘qish vaqtini o‘tkazing. Shuningdek, siz o‘qishni o‘yinga aylantirishga harakat qilishingiz mumkin. Misol uchun, siz bir oyda kim eng ko‘p kitob o‘qiy olishi yoki birgalikda qiziqarli hikoyalar yaratishi uchun tanlov o‘tkazishingiz mumkin. Nima qilsangiz ham, o‘qish farzandlaringiz zavqlanadigan va orziqib kutadigan narsa ekanligiga ishonch hosil qiling. Agar ular buni bajarilishi kerak bo‘lgan vazifa deb bilishsa, ular buni qilishni xohlamaydilar. Agar siz buni qiziqarli qilishingiz mumkin bo‘lsa, ular umr bo‘yi davom etadi, o‘qishga bo‘lgan mehrini rivojlantirish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi. Buning bir yo‘li - uxlashdan oldin ijodiy va qiziqarli hikoyalarni aytib berishdir. Kitobdan shunchaki o‘qish o‘rniga, ertaklaringizni o‘ylab toping va bolangizning sevimli qahramonlarini o‘z ichiga olishga harakat qiling. Bu ularning qiziqishini uyg‘otadi va ko‘proq ertaklarni eshitishga qiziqishlarini uyg‘otadi. Shuningdek, siz ularni hikoyalarning oxirini o‘ylab topishlarini so‘rash orqali o‘z tasavvurlarini ishlatishga undashingiz mumkin. Qisqa vaqt ichida siz farzandlaringiz uxlashdan oldin ko‘proq hikoyalar so‘rashadi va ularda o‘qishga bo‘lgan muhabbat paydo bo‘ladi.

6-usul: O‘qish uchun ularni mukofotlang

Farzandlaringiz kitobga mehr qo‘yishini xohlaysiz. Biroq, ularni o‘qishga qiziqtirish qiyin bo‘lishi mumkin, ayniqsa ular buni oddiy ish deb bilishsa. O‘qish uchun sovg‘alar taklif qilish bolalarni o‘qishga undash usullaridan biridir. Masalan, har safar kitobni tugatganlarida ularga maxsus stiker berishingiz mumkin. Yoki ma’lum marralarga erishish uchun sovg‘alar bilan o‘qish tanlovini o‘rnatishingiz mumkin. Ular o‘z maqsadlariga erishganlarida, siz ularni maxsus sayohatlarga, masalan, kutubxona yoki kitob do‘koniga olib borishingiz mumkin.

7-usul Farzandlaringizga kitoblarni sovg‘a sifatida oling

Kitoblar yangi dunyolarni ochadi va bolalarni yangi g‘oyalar bilan tanishtiradi; o‘qishdan o‘rgangan ko‘nikmalar butun umri davomida ular bilan qoladi. Biroq, bolalarni o‘qishga qiziqtirish qiyin bo‘lishi mumkin. Yordam berishning bir usuli - ular turli kitoblardan foydalanish imkoniyatini ta‘minlashdir. Farzandingizga kitob sovg‘a qilsangiz, ularda kitob o‘qishga bo‘lgan muhabbat paydo bo‘ladi. Farzandingizning yoshi va qiziqishlariga mos keladigan kitoblarni qidiring.

8-usul Ularni tez-tez kutubxonaga olib boring.

Farzandlaringiz umr bo‘yi kitob o‘qishga bo‘lgan mehrini rivojlantirishni xohlaysiz. Bu qiziqishni rag‘batlantirishning bir usuli ularni kutubxonaga tez-tez olib borishdir. Kutubxonada bolangizning tasavvurini o‘ziga jalb etadigan va o‘qishga bo‘lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli kitoblar mavjud. Bundan tashqari, kutubxona bolangizni kitob o‘qishiga qiziqtirishi mumkin bo‘lgan turli xil ta‘lim dasturlarini taklif etadi. Ushbu dasturlar bolangizni yangi mavzular bilan tanishtirishi va 21-asrning muhim ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Va nihoyat, kutubxona farzandingiz bilan bog‘lanish va ularda kitobga mehr uyg‘otish uchun joy.

9-usul Ularni o‘z hikoyalarini yozishga undash.

Farzandingiz o‘qishdan zavqlanishda qiynalayotgan bo‘lsa, uni o‘z hikoyalarini yozishga undash bir yechimdir. Bu ularga ijodiy va o‘zini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu ularga o‘qishni qiziqarli va foydali narsa sifatida ko‘rishga yordam beradi. Siz turli yo‘llar bilan boshlashingiz mumkin, masalan, ularga bo‘sh daftar berish yoki yoza olishi mumkin bo‘lgan voqealarni aytib berish. Shuningdek, siz ularga yo‘l-yo‘riq va takliflar berish orqali yordam berishingiz mumkin. Ularga yo‘l ko‘rsatishga va o‘z tasavvurlarini ishlatishga imkon bering.

10-usul Hududingizdagi bolalar uchun kutubxona toping

Ota-onalar farzandlarini o‘qishga qiziqtirishlarining yana bir yo‘li bu sizning hududingizda bolalar uchun kutubxonaga olib borishdir. Kutubxonaga o‘zi mustaqil borishining afzalliklari juda ko‘p.

- birinchidan, bu bolalarga o‘qishga qiziqishlari bo‘lgan boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi.

- ikkinchidan, bu bolalarga o‘qiyotgan kitoblarini muhokama qilish imkonini beradi. Yuqorida keltirib o‘tilgan usullardan xulosa qilgan holda jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-bolalarni qanday qilib kitobxonlikka qaytarish;

-hozirgi kundagi yozuvchilar tomonidan yozilayotgan adabiyotlar ma’no mazmun mohiyati bir xilligi, yoki adabiyotlarning yosh jihatidan chegaralanganligi, adabiyotlarda yoshni aniq ko‘rsatilishi;

-bolalar o‘qiydigan adabiyotlarning narxini pasaytirish;

XULOSA

Shu bilan bir qatorda yoshlarni qanday qilib kitobxonlikka qaytarishning yechimlari bu jamiyatda eng ko‘p bolalar yig‘iladigan bog‘lar maydonlar har xil hozirgi kundagi diqqatga sazovor Toshkent shahrida qad ko‘targan “Magic city”

“Toshkent city” “Bolalar o‘yingohlari”da shunga o‘xshash dam olish maskanlariga kitob do‘konlari hamda katta kutubxonalar qurilganda, bolalarning dam olish yoki bo‘sh vaqtida ham kitob ko‘zga tashlanib tursa kitobga bo‘lgan mehri, qiziqishi oshirish uchun yordam bergan bo‘lardir. Jamiyatimizda ayrim yozuvchilar tomonidan yozilayotgan badiiy adabiyotlar juda sayoz va yosh jihatidan chegaralangan. Bolalar u kitobni o‘qib, o‘zi uchun ma‘naviy jihatdan hech qanday ozuqaga ega bo‘lmaydi. Bunday adabiyotlarni nashriyotdan chiqish jarayonida nazoratini yana ham kuchaytirish bilan bir qatorda hozirgi kundagi bolalar qiziqadigan mavzularda badiiy adabiyotlar yozilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shuningdek, hozirgi kundagi bolalar o‘qiydigan kitoblarning narxlarini biroz arzonlashtirish ham o‘z natijasini beradi. Bugungi kunda ba‘zi adabiyotlar asosan “biznes”, pul ishlash, mo‘may daromad topish uchun bosib chiqariladi. Kitob savdosidan katta foyda ko‘raman degan odam millat ma‘naviyatiga katta zarar yetkazgan, ilm – fan rivojiga befarq odam bo‘ladi. Xususan bizning Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot – resurs markazi tomonidan talabalar, o‘qituvchilar, xodimlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, ularda mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida TSUL-Library kanalimizda turli xildagi adabiyotlar yoritilib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2019- yil, 7- iyun.
2. Yuldashev I.J., Nosirov O‘. Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti o‘quv qo‘llanma. Toshkent. – 2021.- 356 b.
3. Finlandiya rivojlanish tarixi,- 2022- yil.
4. Goolge.uz
5. [KickstartReading.com](https://kickstartreading.com)

ЎЗБЕКИСТОНДА НЕФТ ВА ТАБИЙ ГАЗНИ ҚАЙТА ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ

Курбонова Умида Саётбековна

Фарғона политехника институти

Қаршиев Бахтиёр Эшқобилович

Термиз муҳандислик-технология институти

Исматов Сарвар Санжар угли

Enter Engineering

***Аннотация.** Мамлакатимиз мустақилликка эришган йиллардан бошлаб ишлаб чиқаришнинг асосий соҳаларидан ҳисобланган нефт ва газ саноатига катта эътибор қаратилди. Республикамизда ёқилги–энергетика мустақиллигига эришиш мақсадида мавжуд ишлаб турган заводлар қаторига янги заводла қуришга киришилди. Янги қуриладиган заводлар ишга туширилиши билан ички бозордаги ёқилги маҳсулотларига бўлган талабни қондириши билан биргаликда ташқи бозорга ҳам маҳсулот чиқариш кўзда тутилган. Мақолада ўзбекистонда нефт ва газ соҳаларининг тарихи ва ривожланиш истиқболлари таҳлил қилинган.*

***Таянч сўзлар.** Нефт, газ, кон, кимё, маҳсулот, атмосфера, табиий, фракция, босим, сепаратор, механик, углеводород, органик, вакуум, ҳарорат, ҳайдаш, ректификация, буг, печ, тарелка.*

Юртимизда нефт ва газни қайта ишлаш соҳасининг вужудга келиши, XIX аср охирида Фарғона водийсидаги очилган дастлабки конларасосида 1904–1906

йилларда республикамиздаги биринчи Олтиариқ нефтни қайта ишлаш заводининг ишга туширилишидан бошланган. Завод асосан нефтни бирламчи қайта ишлашга мўлжалланган бўлиб, ишлаб чиқариш қуввати йилига 1,5 млн. тоннани ташкил этарди.

Маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтириш мақсадида 1958 йилда Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи ишга туширилди. Завод нефт ваконденсатни қайта ишлашга мўлжалланган бўлиб, унинг ишлаб чиқариш қуввати йилига 5,5 млн. тоннани ташкил этади. Заводда хом ашёни бирламчи ва иккиламчи ҳайдаш билан бирга, йилига 500 минг тонна мой ишлаб чиқариш қувватига эга қурилмалар мавжуд. 1996 йил Фарғона нефтни қайта ишлаш заводи чет эл илғор технологиялари (Япония) асосида қайта реконструкция қилинди. Ҳозирда заводда нефт маҳсулотларини 50 дан ортиқ хили ишлаб чиқарилади.

Республикамизда нефтни қайта ишлаш билан биргаликда табиий газни қайта ишлаш соҳасига ҳам катта эътибор берилди. 1971 йил декабрда Муборак газни қайта ишлаш заводи биринчи навбати ишга туширилди. Завод асосан халқ хўжалиги учун энг арзон ёқилғи, табиий газ етиштириб беради. Заводнинг дастлабки қуввати йилига 5 млрд. м³ газни қайта ишлашдан бошланган. 1978–80 йилларда заводнинг иккинчи ва учинчи навбатлари ишга туширилиб, умумий қувват йилига 10 млрд. м³ни ташкил этди. 1984 йил тўртинчи навбати ишга туширилди ва умумий қувват йилига 25 млрд. м³ ни ташкил этди. Ҳозирги вақтда умумий қуввати йилига 30 млрд. м³ ни ташкил этади. Муборак газни қайта ишлаш заводи хом ашё манбалари асосан юқори олтингугуртли (4,5–5,0 %) Ўртабулоқ, Денгизкўл–Хаузак, Сомонтепа конлари ва кам олтингугуртли (0,08–0,3 %) Култук, Зеварда, Помук, Алан газ конларидир. Заводнинг асосий маҳсулотлари табиий газ, техник олтингугурт, барқарорлаштирилганконденсат ва суюлтирилган газ ҳисобланади.

Табиий газдан асосан полимер материаллар полиэтилен, поливинилхлорид, нитрил, акрил кислота ва ундан халқ хўжалиги учун жуда зарур бўлган нитрон толаси олинади.

Истиқлол йилларига келиб, 1997 йилда газ конденсатини қайта ишлашга мўлжалланган чет эл илғор замонавий технологиялардан бири Франция «Текнип» компанияси технологиясига кўра Бухоро вилояти Қаралбозор туманида Бухоро нефтни қайта ишлаш заводи ишга туширилди. Заводда нефт ва газ конденсати аралашмасини бирламчи қайта ишлаш жараёнлари олиб борилади.

Заводнинг умумий қуввати йилига 2,5 млн. тонна нефт ва газ конденсати аралашмасини қайта ишлашга мўлжалланган. БНҚИЗ УҚда автомобил бензинларининг этилсиз маркалари Аи–80 TSh 39.3–203:2004 стандарти асосида, Аи–91, Аи–95 маркалари TSh 39.3–200:2003 стандарти асосида, Джет А–1 русумли авиацион ёқилғи о‘з DSt 1117:2007 стандартиасосида, ЭКО русумли дизел ёқилғиларининг ёзги ва қишки навлари о‘з DSt 1134:2007 стандарти асосида, С4–135/220 русумли углеводородли эритувчи TSh 39.3–235:2007 стандарти асосида, топка мазутларини 40 ва 100 маркалари ГОСТ 10585–99 стандарти асосида, суюлтирилган газ ГОСТ 20448–90 стандарти асосида ва техник олтингурут ГОСТ 127.1–93 стандарти асосида ишлаб чиқарилмоқда [1-10].

Заводга хом ашё асосан «Муборакнефтегаз» УШК, «Муборак ГҚИЗ» УШК, «Шўртан ГКМ» УШК, «Устюртгаз» УШК, «Кўкдумалоқгаз» ҚК, «Ҳисорнефтегаз» ҚК, «Шўртангазмаҳсулот» ҚК, «Жарқўрғон нефтни қайта ишлаш» ҚК, «Uz Gazoil» ОХЖ, «Uz-Kor-Gas» ОХЖ ҚКлар томонидан етказилиб турилади.

Қуйида ҳозирги кунда Бухоро нефтни қайта ишлаш заводида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар тавсифи ва физик-кимёвий кўрсаткичлари келтириган.

АИ-80 ва АИ-91 навли этилланмаган автомобил бензинлари тавсифлари

№	Асосий кўрсаткичлар	АИ-80 автобензини TSh 39.3-203:2004	АИ-91 автобензини TSh 39.3-200:2003
1	Детанацион барқарорлиги: Октан сони, кам эмас	80,0	82,5
2	Бензин дм ³ даги кўрғошин концентрацияси, г кўп эмас	0,0013	0,010
3	Фракцион таркиби: ҳайдашни бошланиш ҳарорати, °С, кам эмас	35	35
	Бензиннинг 50% ҳайдалиш ҳарорати, °С, юқори эмас	120	120
	Қайнаш ҳарорати охири, °С, юқори эмас	215	215
4	Бензин тўйинган буғ босими, кПа, кўп эмас	66,7	66,7
5	Олтингугурт масса миқдори, °С, юқори эмас	0,05	0,05
6	Бензолни ҳажмий қисми, °С, юқори эмас	5,0	5,0

Реактив дивигателлар учун авиация ёқилгиси ТС-1 (ГОСТ 10227-86) тавсифи

№	Асосий кўрсаткичлар	стандарт
1	Зичлиги 20 °С да, кг/м ³ , кам эмас	775
2	Фракцион таркиби:	
	Ҳайдалишнинг бошланғич ҳарорати, °С, кўп эмас	150
	10% ҳайдалиш ҳароарти, °С, кўп эмас	165
	50% ҳайдалиш ҳароарти, °С, кўп эмас	195
	90% ҳайдалиш ҳароарти, °С, кўп эмас	230
	98% ҳайдалиш ҳароарти, °С, кўп эмас	250
3	Қуйи ёниш иссиқлиги, кДж/кг, кам эмас	42900
4	Тутамасдан ёниш баландлиги, мм, кам эмас	25
5	Ёпиқ тигелда алангаланиш ҳарорати, °С, паст эмас	28
6	Кристалланиш бошланғич ҳарорати, °С, юқори эмас	-50
7	Ароматик углеводородлар масса миқдори, %, кўп эмас	22
8	Меркаптан олтингугурт масса миқдори, %, °С, кўп эмас	0,005

Республикамизда нефт кимёси ва органик синтез моддаларини олишни кўпайтириш мақсадида 17 феврал 1998 йил «Ўзбекнефтегаз» Миллий Холдинг Компаниясининг мустақиллик йилларидаги энг муваффақиятли лойиҳаларидан бири ҳисобланган Шўртан газ кимё мажмуасини лойиҳалаш, қурилмаларини етказиш, ўрнатиш ва ишгатушириш бўйича дунёнинг нефть ва газ соҳасидаги кўзга кўринган «ABB Lummus Global» (АҚШ), «ERMAFA», «Fisher» (Германия), «ABB Soimi» (Италия), ВНИИГаз, «Союзвнештранс» (Россия), «Mitsui&Co.Ltd»,

«Nissho Iwai Corp.», «Toyo Engineering Corp.» (Япония) хорижий компаниялари билан ҳамкорликда шартнома имзоланди. 2001 йил охирида Шўртан газ кимё мажмуаси ишга туширилди ва 2002 йил 15 августидан биринчи ўзбек полиэтилен чикарилди.

Майдони 150 гектар бўлган Шўртан Газ Кимё Мажмуаси Қашқадарё вилоятидаги Шўртан газ конлари базаси асосида қурилган бўлиб, бу конлардан Республикада қазиб олинган табиий газнинг 30 % олинади.

Шўртан газ кимё мажмуаси умумий қуввати йилига 4,2 млрд. м³ табиий газни қайта ишлашга мўлжалланган бўлиб, улар асосида– донадор полиэтилен (125 минг тонна); – суюлтирилган газ (137 минг, тонна); – газконденсати (103 минг тонна); – донадор олтингурут (4 минг тонна) ишлаб чикарилаяпти. Шўртан газ кимё мажмуасида ишлаб чикарилаятган барча полиэтилен маҳсулотлари экологик ва гигиеник сертификатларга эгадир. Завод маҳсулотларига 2005 йил Ҳалқаро ISO–9001 сифат сертификати берилди.

Шўртан газ кимё мажмуаси маҳсулотларининг 70 % и Овропа мамлакатлари (Италия, Голландия, Польша, Венгрия, Туркия), Осиё (Эрон, Покистон, Хитой) ва МДҲ давлатлари (Россия, Украина, Озарбайжон, Қирғизистон, Тожикистон) га экспорт қилинмоқда.

«Ўзбекнефтегаз» МХК «Petronas» (Малайзия) ва «Sasol» (ЖАР) билан ҳамкорликда Шўртан ГKM тозаланган метани базасида GTL технологияси бўйича синтетик суюқ ёқилғи ишлаб чикарувчи қўшма корхона қурилиши,

қиймати 2,8 млрд. доллар бўлган лойиҳа асосида 2017 йилда ишга туширилади. Лойиҳадаги завод йилига 3,5 миллиард метр куб газни қайта ишлаб, 672 минг тонна дизел ёқилғиси, 278 минг тонна авиакеросин, 361 минг тонна нафта ҳамда 63 минг тонна суюлтирилган газ ишлабчиқаришга мўлжалланган. Бу эса, Евро–4 ва Евро–5 стандартларига жавоббеврувчи дизел ёқилғиси, керосин, нафта ва суюлтирилган газ ички бозорва экспортга чиқарилиши режалаштирилган.

Ҳозирги вақтда Республикамизда ёқилги энергиясига бўлган талабни тўла қондиришда «Ўзбекнефтегаз» Миллий холдинг компанияси асосий ўрин тутди. Компания 154 корхона ва ташкилотни ўз ичига олиб, улардан 87 таси акционерлик ҳамда 67 таси давлат корхоналаридир.

«Ўзбекнефтегаз» тизимида 8 та йирик компания фаолият юритади:

«Ўзгеонефтваз қазиб чиқариш», «Ўзнефтваз-бурғалаш», «Ўзнефтни қайта ишлаш», «Ўзнефтвазсулот», «Ўзнефтвазқурилиш» ва бошқалари нефт ва газ саноатида муҳим рол ўйновчи компаниялардир, яъни «Ўзнефтвазмаш»,

«Ўзнефтвазҳимоя-таъминот», «Ўзнефтегазалоқа», «Ўзташқинефтегаз».

Ҳозирда Республикамизда жаҳон сифат андозаларига мос келувчи тайёр нефт маҳсулотларини ташқи бозорга чиқариляпти.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ливитин З.С., Ходжиматов А.Х. “История нефтяной промышленности Ўзбекистана”. Тошкент, Меҳнат.1995г.
2. Акрамов Б.Ш., Мавлонов А.В. “XX аср нефт географияси”. ТошДЕУ хабарлалари, №3, 1999 й.
3. А.И. Шарковский “Разработка и эксплуатация газовых и газоконденсатных месторождений” Москва 2000 г.
4. Ю.П. Желтов И др “Методы прогнозирования развития нефтегазового комплекса” Москва 2000 г.
5. Щелкачев В.Н. Отечественная и мировая нефтедобыча – история, современное состояние и прогнозы. – М.: Недрa 2002. 132с.

6. Туманян Б.П. Практические работы по технологии нефти (малый лабораторный практикум) Москва 2006.
7. Б.В. Белянин, В.Н. Эрих, Технический анализ нефтепродуктов и газа. 1979. Л. «Химия» 217 С.
8. Корзун: Н.В., Магарил Р.З., Химия нефти учеб. пособие Тюмень: Тюм.ГН.РУ, 2004.
9. Абидов А.А., Умурзаков Р.А., Абидов Х.А., Юлдашев Г.Ю., Рахматов У.Н., Раббимкулов С.А. «Нетрадиционные методы поисков залежей УВ в свете миксгенетической концепции происхождения нефти и газа». Монография. – Ташкент: «Фан ва технологиялар», 2017. – С.112.
10. Эрих В.Н. “Химия нефти и газа”. –Л.: Химия, 1966.

TEKNOLOGIYA DARS MASHG'ULOTLARIDA IQTIDORLI TALABALARNI ZAMONAVIY ILM-FAN TARAQQIYOTIGA TAYYORLASHNING SHART- SHAROITLARI

O'.Yu.Qalandarova

Fizika –matematika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

D.B. Yaqubova

Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida texnologiya darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanib dars mashg'ulotlarini olib boorish to'g'risida. Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan biri sifatida bunday jarayon respublikamiz pedagogika fani va umuman ta'lim sohasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.*

***Kalit so'z:** Ta'lim, metod, texnologiy, pedagogik, interfaol, tabaqalashtirilgan, iqtidor.*

***Annotation:** This article is about effective use of interactive methods in technology lessons in educational institutions to enhance the lessons. As one of the indicators of reforms in the field of education and socio-economic development of our republic, such a process is clearly visible in the field of pedagogy and education in general.*

***Key word:** Education, method, technological, pedagogical, interactive, differentiated, talent.*

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan biri sifatida bunday jarayon respublikamiz pedagogika fani va umuman ta'lim sohasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Pedagogik texnologiyalarni respublikamiz ta'lim tizimi mazmunini

yangilashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholash mumkin. «Pedagogik texnologiya» atamasining o'ziga xosligini ifoda etuvchi texnologiya tushunchasi odatda ishlab shiqarish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi sifatida tasavvur etiladi va u ta'lim xodimlari uchun ham tub ma'noda yangilik emas. Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon pedagogika fani nazariyasi va amaliyotiga faol tatbiq etib kelinayotgan bo'lsa-da, mamlakatimizda bu jarayon faqatgina mustaqillik yillarida boshlandi. Ayni paytda, bu borada erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, ba'zi chalkashliklarning ham yuzaga kelganligini qayd etish lozim. Xususan, ba'zi o'qituvchilarda noan'anaviy tarzda tashkil etilgan dars jarayonida qo'llanilgan har qanday usul yoki metodlarni «pedagogik texnologiya asosidagi dars» sifatida baholashga nisbatan moyillik yuzaga kelmoqda. O'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darsni o'zlarining pedagogik texnologiya sifatida targ'ib qilish holati ko'zga tashlanmoqda. Aslida pedagogik texnologiya faqatgina metodni yangilash bilan izohlanmaydi. Bu ikki tushunchani o'zaro tenglashtirish yoki qarama-qarshi qo'yilishiga oid fikrlarning mavjudligi ularning mohiyatini to'laqonli talqin qilish zaruriyatini keltirib shiqaradi.[2.26.5]

An'anaviy yondashuvga ko'ra texnologiya xom ashyo yoki materialga ishlov berish, tayyorlash, shuningdek uning holati, xossalari va shaklini o'zlashtirishga qaratilgan metodlarning majmuasi sifatida e'tirof etiladi. O'qituvchi biron darsda o'qituvchilar muayyan buyumni tayyorlash jarayonining texnologik kartasini ishlab chiqadilar. Ma'lumki, jarayonlar mohiyatini nazariy jihatdan anglab yetishda modelni qurish muhim bosqich sanaladi. Tadqiq etilayotgan jarayonlarning modeli aniq belgilangan maqsadlardan kelib chiqqan holda tanlab olinadi. Modelni loyihalashda o'rganilayotgan hodisaning ba'zi belgilari, alomatlarini umumlashtirib olinishiga yo'l qo'yiladi. Shu kabi o'qitish jarayonini tadqiq qiluvchi izlanishlar odatda, bu jarayonni amalga oshirishda muhim o'rin tutuvchi o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatini asosiy ob'ekt sifatida qabul qiladilar. Chunonshi, fanlarni o'qitishning xususiy metodikasi ta'lim mazmuni, o'qitish maqsadi, shakl, metod va vositalari kabi tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi tizim ko'rinishida modellashtiriladi.[2.22.318]

Metod (yunoncha – metodos so‘zidan olingan bo‘lib, tadqiqot, tekshirish degan ma‘noni beradi, yana aynan u yoki bu narsaga, haqiqatga yo‘l demakdir) maqsadga erishish usuli, tartibga solingan faoliyat ma‘nolarini anglatadi.

Ta‘lim metodi ta‘lim nazariyasining ajralmas qismi sanaladi. Xususiylar metodikalarning vazifasi nazariy xulosalarni aniq tatbiqiy shaklga keltirishdan iboratdir. O‘qitish texnologiyasi esa ta‘lim jarayonining barcha o‘zaro bog‘liq qismlarni tashkiliylar jihatdan tartibga keltirish, ularni bosqichlarga ajratish, amalga oshirish sharoitini belgilab berish, uni ro‘yobga chiqarishning mavjud imkoniyatlari bilan qiyoslashga xizmat qiladi.[2.21.26]

Pedagogik texnologiya va ta‘lim metodikasi tushunchalarining o‘zaro qiyosiy tahliliga xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu ikki tushuncha o‘qitish jarayoni tahlilining turli darajalarini ifodalaydi. Bu darajalar bir- birini taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalar o‘qitish jarayonini samarali tartibda amalga oshirish, boshqarish, ko‘zlangan maqsad asosidagi natijalarga erishish imkonini yaratadi. Ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi natijasida o‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqishlari ortdi. Hozirgi paytda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng miqyosidagi ta‘lim islohotlari barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan demokratik ta‘lim metodlari asosidagi milliy modelning joriylar etilishi bilan ahamiyatlidir.

Faol ta‘lim metodlari ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va mamlakatimiz ta‘lim xususiyatlari bilan omuxtalashtirish natijasida keng ommalashayotgan demokratik ta‘lim metodlari turkumiga kiradi. U ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi fikrining o‘zaro hurmat qilinishi, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarida yuqori darajadagi muloqot ko‘nikmalarining shakllantirilishi bilan ahamiyatlidir. Faol ta‘lim metodlarini qo‘llash jarayonining xarakterli xususiyati shaxsning axborotlarni o‘zlashtirishdagi barcha imkoniyat va malakalar umumiy majmua sifatida qarashidir.

Mashg‘ulotlar davomida mazkur mashqlar dars samaradorligining sezilarli ortishiga, mustaqil va ijodiy fikrlovchi o‘quvchi shaxsinishakllantirishga xizmat qiladi.

